

O'ZBEKISTAN RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 37(09) O'z: + O'008

HIMMATOVA MASHHURA AXTAMOVNA

TASAVVUF TA'LIMOTIDAN TALABALAR MA'NAVIYATINI
SHAKLLANTIRISHDA FOYDALANISHNING ZAMONAVIY
USULLARI (AHMAD YASSAVIY, BAHOUDDIN
NAQSHBANDIY MEROSI ASOSIDA)

5A140804 – Pedagogika mutaxassisligi

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTASIYA

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga

ruxsat berildi. _____

«Pedagogika va psixologiya» kafedrası mudiri

dos. Yu.Ahrorov _____

Ilmiy rahbar:

dos. Abdumannotov A. _____

M.O'.

SAMARQAND-2011

M U N D A R I J A

KIRISH	3
I BOB. TASAVVUF TA'LIMOTI ASOSIDA TALABALAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	11
1.1. Tasavvuf ta'limoti to'g'risida tushuncha va uning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni.....	11
1.2. Talabalar ma'naviyatini shakllantirishda tasavvuf ta'limotidan foydalanishning hozirgi holati va imkoniyatlari	24
II BOB. TALABALAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TASAVVUF TA'LIMOTIDAN FOYDALANISHNING MAZMUNI, SHAKLI VA METODLARI	33
2.1. Pedagogika turkum fanlari asosida dars jarayonida talabalar ma'naviyatini shakllantirishda tasavvuf ta'limotidan foydalanishning mazmuni va mohiyati.....	33
2.2. Auditoriyadan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda tasavvuf ta'limoti asosida talaba ma'naviyatini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari	45
2.3. Talabalarda tasavvuf ta'limoti asosida ma'naviy tushunchalarni shakllantirishga oid tajriba-sinov ishlarining natijalari va samaradorligi	53
Xulosa va tavsiyalar	64
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	66
Ilovalar	69

KIRISH

Muammoning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasining strategik maqsadi – bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurishdan iboratdir. Shu bois, har bir mamlakatimiz fuqarosi, shaxsiy faollik, bilimdonlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik kabi olijanob fazilatga ega bo'lishi, bu jarayon xalqimizga ma'naviy, ma'rifiy, adabiy, tarixiy merosi, qadriyatlardan o'rinli va samarali foydalanishni talab qiladi. Milliy mafkuramizni yoshlar ongida shakllantirish va komil insonni tarbiyalash ilmiy, tarixiy va ijtimoiy mavzulardan ekanligi, shuning uchun xalqimizning milliy-ma'naviy, ma'rifiy merosini, shu jumladan tasavvufiy qadriyatlarini ta'lim sohasida muayyan tizim asosida o'rganishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mustaqilligimizning ma'naviy-axloqiy negizlari to'g'risida to'xtalib, bu negizlar umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi, vatanparvarlik ekanligini ko'rsatib bergan.

Shuningdek, davlatimiz rahbari o'zining qator ma'ruzalarida, xalq bilan bo'lgan uchrashuvlarida, "Tafakkur" jurnali Bosh muharririning savollariga bergan javoblarida, Oqsaroy qarorgohida fan va madaniyat xodimlari bilan bo'lgan uchrashuvida, "Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga bergan javoblarida ma'naviy merosimizni alohida e'tibor bilan chuqur o'rganish lozimligini qayta-qayta ta'kidlab o'tgan edi.

Yurtboshimiz "Turkiston press" axborot agentiligi muxbirining savollariga bergan javobida "... biz farzandlarimizni dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda Imom Buxoriy to'plagan hadislar, Naqshbandiy ta'limoti, Termiziy o'g'itlari, Yassaviy hikmatlari asosida tarbiya qilmodamiz" – degan edi.[8]

Shu sababdan ilmiy-tadqiqot mavzumizning dolzarbligini quyidagicha izohlash mumkin:

- talaba – yoshlarda milliy mafkurani shakllantirish va insonni tarbiyalash ilmiy, tarixiy va ijtimoiy dolzarb mavzulardan ekanligi, bu borada xalqimizning

ma'naviy-ma'rifiy merosini shu jumladan, tasavvufiy qadriyatlarini o'rganishni taqozo qiladi;

- xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy merosi va qadriyatlarimizning asosiy qismi islomiy qadriyatlarimiz ya'ni, Qur'oni Karim, Hadisi sharif, tafsirlar va tasavvufiy meros tashkil qiladi. Hozirgi davr xalqimiz ma'naviy-ma'rifiy merosini o'rganish va uni mustahkamlash jarayonida islomiy va tasavvufiy merosni zamonaviy usullar yordamida o'rganish va o'rgatishni taqozo qilmoqda;

- milliy, ma'naviy-ma'rifiy merosimizning asosiy qismini tasavvufiy ta'limoti va qadriatlari, uchta buyuk tasavvufiy tariqatlar: yassaviya, kubraviya, naqshbandiya tariqatlari tashkil etadi. Vatanimiz o'zining taraqqiyot yo'lidan borar ekan, umuminsoniy qadriyatlarga sodiq ekanligini dunyoga ma'lum qilgan. Shuning uchun tasavvufni, uni yoshlar tarbiyasidagi o'rnini milliy va umuminsoniy adriyat sifatida o'rganish zarur;

- milliy tiklanish jarayonida yurtboshimizning sa'y harakati bilan tasavvuf ta'limotiga salmoli ulush qo'shgan vatandoshlarimizning yubileylarining nishonlanishi muhim voqyea bo'ldi. Prezidentimiz ta'kidlab o'tganidek "Milliy tariximiz va umumbashariy taraqqiyot rivojiga unutilmas hissa qo'shgan olimu-fuzalolarning mafkura va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida qoldirgan ilmiy merosi, falsafiy qarashlarini har tomonlama o'rganish darkor. Men bu o'rinda Abu Nasr Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi ulug' ajdodlarimizning shu mavzuga oid asarlarini nazarda tutayapman"¹. Bu fikrlar bizga tasavvuf ta'limotidan talaba-yoshlar ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rnini ilmiy jihatdan o'rganishni talab qiladi.

- Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik jamiyat bunyod etilayotgan hozirgi sharoitda tasavvuf ta'limotining barkamol avlodni shakllantirish borasidagi g'oya, nazariya, tajribalaridan foydalanishni yetarlicha tahlil qilish va uni amaliyotga joriy qilish lozim.

¹ Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX Sessiyasida so'zlagan nutqi, 1997 yil 29 avgust.-T.:Sharq, 1997. -65 b.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tasavvuf ta'limoti va uning tariqatlari yuzasidan bir qator xorij, rus, mahalliy olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan. Olib borilgan ilmiy-tadqiqotlarning xarakteri va yo'nalishiga qarab quyidagi guruhlargi ajratishimiz mumkin:

- Ahmad Yassaviy va Bahouddin Naqshbandning hayoti, ilmiy merosi to'g'risida XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida rus olimlari A.Semyonov, A.Krimskiy, V.Bartold, B.A.Gordlevskiy, L.I.Klimovich, A.M.Bogoutdinov, S.N.Grigoryan, M.T.Stepanyans kabi olimlarning asarlari.

- Sho'ro davri olimlari: Ye.Bertelis, I.Petrushelskiy, I.Brashinskiy, A.Sadiy, A.Fitrat, I.Mo'minov, M.Xayrullayev, A.Zohidov, S.Karimovalarning tadqiqotlarida.

- Faylasuf va adabiyotshunos olimlardan E.Rustamov, M.Usmonov, N.Komilov, Y.Jumaboyev, S.Ismoilov, I.Haqqulov, M.Oripov, B.Iskandarov, H.Aliqulovlarning ilmiy izlanishlarida.

- Mustaqillik davri: I.Sulton, A.Qayumov, O.Fayzullayev, O.Usmon, A.Zohidov, S.Buxoriy, H.Aliqulov, R.Nosirov, S.Okimlarning tadqiqot ishlari va ilmiy maqolalarida.

- Sharq va G'arb olimlaridan F.Kuprilizoda, I.Goldsiyer, G.Vamberi, Jo'shon va boshqalarning tadqiqotlarida.

O'zbek pedagog olimlaridan S.Nishonova, A.Zunnunov, K.Hoshimov, O'.Aleulov, S.Hasanov, Q.Yo'ldoshev, J.Hasanboyev, M.Ro'ziqulov, M.Hojiyevalarning ilmiy tadqiqotlarida va ilmiy maqolalarida ushbu masala muayyan darajada o'rganilgan.

Mustaqillik davridagi R.Shodiyev, E.Karimov, F.Tillaboyev, B.Bobojonov larning tadqiqotlarida Bahouddin Naqshband merosi, dunyoqarashi va amaliyoti atroflicha o'rganilgan. G.Navro'zovaning "Naqshbandiya tasavvufiy ta'limoti va barkamol inson tarbiyasi" mavzusidagi doktorlik dissertasiyasida birinchi marta Respublikamizda Bahouddin Naqshbandning "Avrod" asarini jamoatchilikka e'lon qildi, shu bilan birga "Naqshbandiya tasavvufiy ta'limoti va barkamol inson tarbiyasi" mavzusidagi doktorlik dissertasiyasini himoya qildi. Ushbu tadqiqot

tasavvuf ta'limotining mohiyati va naqshbandiya tariqatining komil inson tarbiyasidagi o'rnini yoritishga bug'ishlangan. Nashbandiyani turk tadqiqotchilaridan Tohsin yozuvchi, To'g'on, Saljuq Eroydin, A'sod Jo'shonning tadqiqotlarida tariqat qoidalari keng yoritilgan. Shuningdek, Turkiyada har to'rt oyda bir marta chiqargan "Vugevi" nomli jurnalni ham keltirish mumkin. Ammo, Ahmad Yassaviyning ta'limoti talaba-yoshlar tarbiyasidagi hayotiy muammolarni hal etishga yordam beradigan ta'limot sifatida batafsil o'rganilmagan. Yassaviyning hikmatlari hozirgacha asosan falsafa, dinshunoslik, adabiyotshunoslik nuqtai-nazaridan o'rganilgan. Tasavvuf ta'limotining tarbiyaviy qirralari ham tahlil qilingan. Shuning uchun ham M.Xayrullayev, E.Yusupov, R.Nosirov, S.Ismoilovlar tasavvuf ta'limotining ma'rifiy jihatlari yetarli darajada o'rganilgan, deb ko'rsatilgan.

Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul "Ta'qdir va tafakkur" asarida "Tasavvuf biz uchun ilohiy, axloqiy, falsafiy, ruhoniylar va ma'naviy meros ... Zero, Sharqdami, G'arbdami bundan qat'iy nazar, qaysi joydagi tasavvuf yaxshi o'rganilgan bo'lsa, o'sha joyda u e'tibor qozongan", - degan edi.

Akademik Erkin Yusupov "Tasavvuf milliy, diniy merosgina emas, balki umuminsniy qadriyat hamdir. Biz yetmish to'rt yil mobaynida ana shunday qadriyatlardan ajralgan holda yoshlarimizga, kelajak avlodlarimizga tasavvuf tariqatidan saboq bera olmadik. Oqibatda o'quvchi va talabalarimiz milliy axloida umuminsoniy meroslarga sadoqat bilan kurashdek buyuk adriyatlarni tarbiyalashda qo'pol xatolar kelib chiqdi", - degan edi.

Sharqshunos olim N.Komilov "...tasavvuf musulmon sharqi mamlakatlari ijtimoiy va ma'naviy hayotiga chuqur kirib bordi, fan, madaniyat va adabiyot rivojiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. XI asrdan boshlab sharqning deyarli barcha nufuzli shoir va yozuvchilari, mutafakkir va olimlari tasavvufdan oziqlanib uning insonparvarlik va haqsevarlik g'oyalaridan ruhlanganlar"², - deb yozadi.

² Komilov N. Tasavvuf. -T.:G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at hamda "O'zbekiston" nashriyotlari. 1-kitob.- T.:1996-1999. -272 b.

Pedagogika fanlari nomzodi Maqsuda Hojiyeva o'zining "Xoja Ahmad Yassaviyning ma'naviy-tarbiyaviy qarashlari" mavzusidagi nomzodlik dissertasiyasida Ahmad Yassaviyning ma'naviy-tarbiyaviy qarashlarini muayyan darajada o'rganganligini qayd etish lozim.

Faylasuf olim S.T.Ismoilov o'zining "Nashbandiya tariqatining tasavvuf taraqqiyotidagi o'rni"³ mavzusidagi nomzodlik dissertasiyasida tariqatining tasavvuf taraqqiyotidagi tutgan o'rnini va ahamiyatini falsafiy-tarixiy jihatdan tadqiq etgan.

Ammo, tasavvuf ta'limoti asosida talabalar ma'naviyatini shakllantirish masalasi yetarlicha o'rganilmagan. Shu bois, magistrlik dissertasiyamiz mavzusi "**Tasavvuf ta'limotidan talabalar ma'naviyatini shakllantirishda foydalanishning zamonaviy usullari (Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy merosi asosida)**" deb tanlashimizga asos bo'ldi.

Tadqiqotning maqsadi: Tasavvuf ta'limoti asosida ma'naviyatini shakllantirishning pedagogik jihatlarini aniqlash va takomillashtirish hamda uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti: Pedagogika fakultetining talabalari o'rtasida tasavvuf ta'limotini o'rganish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Pedagogika fakultetida o'qitiladigan pedagogik turkum fanlarni o'rganish jarayonida talabalar ma'naviyatini tasavvuf ta'limoti asosida shakllantirishning mazmuni, shakli va metodlari.

Tadqiqot vazifalari:

- tasavvuf ta'limoti asosida talaba ma'naviyatini shakllantirishning o'rnini aniqlash va takomillashtirish;
- talabalar ma'naviyatini shakllantirishda tasavvuf ta'limotidan foydalanishning hozirgi holati va imkoniyatlarini o'rganish;
- pedagogika turkum fanlari asosida dars jarayonida talabalar ma'naviyatini shakllantirishda tasavvuf ta'limotidan foydalanishning mazmuni va mohiyatini aniqlash;
- auditoriyadan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda tasavvuf ta'limoti asosida talaba ma'naviyatini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini yoritish;

³ S.Ismoilov. Naqshbandiya tariqatining tasavvuf taraqqiyotidagi o'rni. Falsafa fan.nomz.diss.avtoreferati. 2008, 21 b.

- pedagogika turkum fanlari negizida tasavvuf ta'limotini o'rganish asosida talaba ma'naviyatini shakllantirishning zamonaviy usullariga oid tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodlari: Tadqiqot ishini o'rganish jarayonida mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatish, tajriba, suhbat, so'rovnoma, savol-javob, olingan natijalarni umumlashtirish hamda matematik-statistik tahlil qilish usullaridan foydalanish.

Tadqiqotning ilmiy farazi, agarda: tasavvuf ta'limoti asosida komil insonni tarbiyalashning o'рни aniqlansa, takomillashtirilsa, talabalar ma'naviyatini shakllantirishda tasavvuf ta'limotidan foydalanishning hozirgi holati va imkoniyatlari o'rganilsa, pedagogika turkum fanlari asosida dars jarayonida talabalar ma'naviyatini shakllantirishda tasavvuf ta'limotidan foydalanishning mazmun va mohiyati aniqlansa, auditoriyadan tashqari tadbirlarda tasavvuf ta'limoti asosida talaba ma'naviyatini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilsa, pedagogika turkum fanlari negizida tasavvuf ta'limotini o'rganish asosida talaba ma'naviyatini shakllantirishning zamonaviy usullariga oid tavsiyalar ishlab chiqilsa, tasavvuf ta'limoti asosida talaba ma'naviyatini shakllantirishning mazmun va sifati ta'minlanadi hamda samaradorligi oshadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- tasavvuf ta'limoti asosida barkamol avlodni tarbiyalashning o'рни aniqlanganligi va takomillashtirilganligi;

- talabalar ma'naviyatini shakllantirishda tasavvuf ta'limotidan foydalanishning hozirgi holati va imkoniyatlari o'rganilganligi;

- pedagogik turkum fanlar asosida dars jarayonida talabalar ma'naviyatini shakllantirishda tasavvuf ta'limotidan foydalanishning zamonaviy usullarini aniqlanganligi;

- auditoridan tashqari o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarda tasavvuf ta'limoti asosida talaba ma'naviyatini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilganligida o'z ifodasini topgan.

Tadqiqotning metodologik asosini: O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning tarixiy merosni o'rganish, diniy tarbiyani rivojlantirish, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, jaholatga qarshi ilm-ma'rifatni qo'llash ma'naviyatni yuksaltirishga oid g'oyalari, "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" risolasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Markaziy Osiyo qomusiy olimlarining komil inson tarbiyasiga oid fikrlari, barkamol avlod shaxsini, xislatlarini tarbiyalash to'g'risidagi ta'limotlar, ilg'or pedagogik va didaktik nazariyalar, tasavvuf ta'limotini o'rganishning tarixiy, falsafiy va adabiyotshunoslikka oid nazariy xulosalari, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish to'g'risidagi ilg'or pedagogik tajribalar va me'yoriy hujjatlarni tashkil etadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: tasavvuf deganda komillikka intilish, ham ruhan ham jismonan pok bo'lish, bularga maxsus riyozat bosqichlari orqali yetib borish, hayotda faol bo'lish, insonning hayotini baxtli qilish, uni e'zozlash, insonni o'z aql va iroda kuchiga ishontirishda "Pedagogika", "Pedagogika tarixi", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" kabi pedagogik turkum fanlarni o'tishda, auditoridan tashqari turli tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish darajasi: tadqiqot natijalari talaba va magistrnlarning an'anaviy ilmiy-amaliy anjumanlaridagi ma'ruzalarida, ilmiy to'plamda chop etilgan maqolalarda, tajriba-sinov ishlari yordamida amalga tadbiiq etildi.

Tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari: tadqiqot ishlari uch bosqichda amalga oshirildi. **Birinchi bosqichda** (2009 yil sentyabr – 2010 yil may) mavzuga oid tarixiy, falsafiy, adabiy, pedagogik, psixologik asarlarni o'rganish asosida tasavvuf ta'limotining ma'naviy-tarbiyaviy jihatlari o'rganildi, tahlil qilindi.

Ikkinchi bosqichda (2010 yil aprel - dekabr) tasavvuf ta'limoti ilmiy, adabiy, falsafiy, pedagogik-psixologik nuqtai-nazardan o'rganildi, tasavvuf ta'limotining asoschilarining ma'naviy-tarbiyaviy qarashlari muayyan tizim shaklida tasniflab berildi.

Uchinchi bosqichda (2011-yil yanvar-may) tasavvuf ta'limoti asosida dars va auditoridan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda foydalanishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi va olingan natijalar umumlashtirilib, tegishli xulosalar chiqarildi.

Himoyaga olib chiqilayotgan holatlar:

1. Tasavvuf ta'limoti asosida talaba ma'naviyatini shakllantirishning o'rnini aniqlash va takomillashtirishni;

2. Talabalar ma'naviyatini shakllantirishda tasavvuf ta'limotidan foydalanishning hozirgi holati va imkoniyatlarini o'rganishni;

3. Pedagogik turkum fanlar asosida dars jarayonida talabalar ma'naviyatini shakllantirishda tasavvuf ta'limotidan foydalanishning mazmuni va mohiyatini aniqlashni;

4. Auditoriyadan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda tasavvuf ta'limoti asosida talaba ma'naviyatini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini yoritishni.

Magistrlik dissertasiyasining tarkibiy tuzilishi: dissertasiya kirish, ikki bob, besh fasl, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

**I BOB. TASAVVUF TA'LIMOTI ASOSIDA
TALABALAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHNING
ILMIY-NAZARIY JIHATLARI**

**1.1. Tasavvuf ta'limoti to'g'risida tushuncha va uning
barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'zining “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida “Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini o'z maqsad – muddaolari, shu bilan birga umumbashariy taraqqiyot yutulari asosida rivojlantirib, ma'naviy dunyosini rivojlantirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va izzatlarini bilan ham va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi”, - deb alohida ta'kidlagan edi. (12)

Ma'lumki, xalqimiz o'zining tarixiy taraqqiyoti davomida ma'naviyat va ma'rifatga oid boy merosga ega. Ammo, ushbu boy ma'naviy merosdan mustaqillik yillarigacha yetarlicha foydalanilmadi. Hozirgi kunda ma'naviy-axloqiy tarbiya borasida olib borayotgan ishlarimizda ushbu ma'naviy boyliklardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldik. Jumladan, odamlarni halollikka, poklikka, tenglikka, inson qadr-qimmatini yerga urmaslikka chorlovchi, barcha musulmonlarning teng bo'lib, har kim o'zining halol mehnati bilan kechirishni boshqalarning kuchidan foydalanmaslikka ijtimoiy adolat qoidalariga rioya etishni targ'ib etuvchi ta'limot – tasavvufdan foydalanishga harakat qilinmoqda. Ushbu ta'limotning taraqqiyotga salmoqli ulush qo'shgan vatandoshlarimiz Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshbandiy kabi allomalarning ma'naviy-axloqiy qarashlarini, talaba-yoshlar ongiga yetkazish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri ekanligini davr taqozo qilmoqda.

Tasavvuf ta'limoti namoyondalari Allohga vujudan berilish, uning rizosiga yetishish orqali erishish muhim deb hisoblaganlar. Ushbu ta'limotda ko'rsatilishicha, hayotiy muammolar bilan bog'liq bo'lgan oliy maqomlarga

yetishish bosqichma-bosqich amalga oshadi. Bu bosqichlarning har birida inson haqiqatga asta-sekinlik bilan yaqinlasha boradi. Eng yuksak haqiqat inson o'z vujudi, ichki mulohazasi va kechinmalari orqali yetishgan bilimdir. Dilga Allohning nomini jo qilish insonning qalbini poklaydi, uni iymon, e'tiqod, halollik, axloqiy poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik yo'liga undaydi. Shu boisdan ham tasavvuf ta'limotiga dilga Allohning nomini jo qilib, halol mehnat bilan kun ko'rishlik inson hayoti va faoliyatining asosiy mazmuni sifatida talqin etiladi. Tasavvufning bu yo'li o'zining asosiy mohiyati jihatidan diniy e'tiqod va iymonni dunyoviy muammolar bilan bog'lash, ularni adolatli hal etishga hissa qo'shishga kishilarni undash bilan ham ahamiyatga molikdir.

Tasavvuf ta'limoti islom olamida VIII asrning o'rtalarida paydo bo'lgan. Dastlab u zohidlik harakati ko'rinishida kurtak yoygan. Muhammad payg'ambarimiz vafotidan keyin musulmonlar jamoasi ichida bo'linish yuz beradi, ayniqsa xalifa Usmon zamonida boylikka ruju qo'yish, qimmatbaho tuhfarlar bilan qarindosh-urug'lar, yaqin do'st-birodarlarni siylash rasm bo'lgan. Ummaviya xalifaligi davriga kelib, saroy hashamlari, dabdabali bezaklar, oltin-kumushga berilish, xazina to'plash avj oladi. Ya'ni, diniy mashg'ulotlar, xudo yo'lidagi toat-ibodat o'rnini dunyoviy ishlar, dunyo moliga muhabbat egallay boshladi. Bu hol diniy amrlarni ado etishni har qanday dunyoviy ishlar, boyliklardan ustun qo'ygan e'tiqodli kishilarning noroziligiga sabab bo'ldi. Ular orasida hadis to'plovchi muhaddislar, ilgaridan qashshoq bo'lib, uy-joy, mol-mulkka e'tibor qilmagan sahobalar ham bor edi. Bularning bir qismi dinni himoya qilib, ochi kurashga otlangan bo'lsalar, ikkinchi qismi esa qanoat va zuhdni ("zuhd" so'zi "zohid" so'zi kelib chiqqan) asosiy maqsad qilib olib, saroy ahli va savdogarlar, boylar axloqiga qarshi norozilik belgisi sifatida tarkidunyochilik g'oyasini targ'ib etib, ijtimoiy faoliyatdan butunlay chetlashganlar, surunkali toat-ibodat bilan shug'ullanganlar.

Kufa, Bog'dod, Basra shaharlarida tarkidunyo qilgan zohidlar ko'p edi, ularning obro'si xal o'rtasida yuqori bo'lgan. Masalan, Uvays Qaroniy, Hasan Basriy kabi yirik so'fiylar aslida zohid kishilar edi, ammo ba'zi mualliflar ularni so'fiylar qatoriga qo'shmaganlar ham.

Buning sababi, zohidlar uzlat va taqvoni pesha etgan bo'lishlariga qaramay, ishq va irvon (ilohiy ma'rifat)dan bexabar kishilar edi. Ular falsafiy mushohadakorlik, ajzu irodat bilan ma'naviy-axloqiy kamolot sari intilish, valilik, karomat, mo'jizalar ko'rsatish kabi xislatlarga ega emasdilar. Zohidlarning niyati ibodat bilan oxirat ma'rifatini qozonish, Qur'onda va'da qilingan jannatning huzur-halovatiga yetishish edi. So'fiylar nazarida esa jannat umidida toat-ibodat qilish ham ta'maning bir ko'rinishidir. Holbuki, so'fiy uchun na dunyodan na oxiratdan mta'ma bo'lmasligi kerak. Yagona istak bu – Xudoning diydoridir.

Mashhur so'fiy ayol Fobia Adviya (714-801) Tangriga munojotlarida nola qilib aytar ekan, “Ey Parvardigorim, ey Yori aziz, agar jannatning ta'masida toat qiladigan bo'lsam, jannatingdan benasib et, agar do'zaxingdan qo'rqib itoat etadigan bo'lsa – meni do'zax o'tida kuydir – ming-ming roziman! Ammo agar sening jamolingni deb tunlarni bedor o'tkazar ekanman, yolvoraman, meni jamolingdan mahrum etma!” Tangri taologa quruq ko'r-ko'rona mutyelikning hojati yo'q. Xudo g'azabidan qo'rqibgina amri ma'rufni botirlik, sadoqat belgisi emas, balki riyodir. Shuning uchun so'fiylar: Allohni jon-dildan sevish, Uning zoti va sifatlarini topish va bilish, ko'ngillin nafsu-hirs g'uboridan poklab, botiniy musaffo bir holatda iloh vasliga yetishish va bundan lazzatlanish g'oyasini keng targ'ib qildilar. Inson ruhiy ilohiydir, demak, asosiy maqsad – ilohiy olamga borib qo'shilmoqdir, dedilar.

Shu taria dunyodan ko'ngil uzgan, ammo zohidlarga o'xshamaydigan, “bir nazar bilan tuproqni kimyo etadigan” (Hofiz Sheroziy) zehni zakovat, aqlu-farosatda tengsiz, ammo o'zga mutafakkirlar, faylasuflardan ajralib turadigan, shariat ilmini suv qilib ichgan, toat-u ibodatda mustahkam, ammo oddiy dindorlardan farqlanadigan ajoyib xislatli odamlar toifasi paydo bo'lgan ediki, ularni ruh kishilari deb atardilar. Bunday odamlarning fe'l-atvori, yurish-turishi, odatdan tashqari so'zlari va ishlari atrofdagilarni hayratga solar, ba'zilarining g'oyibdan bashorat beruvchi karomatlari, sirli mo'jizalari aqlni lol qoldirar edi. Ularni axluloh, avliyo, ahli hol, ahli botin, arbobi tariqat, darvesh, qalandar, faqir degan nomlar bilan tilga olardilar. Ammo, bu toifaga nisbatan ko'proq “so'fiy” nomi qo'llanilgan, sababi

ushbu soʻzning maʼnosi ancha keng boʻlib, boshqa tushuncha va atamalarni oʻz ichiga singdiradi.

Soʻfiy soʻz qayerdan paydo boʻlgan? Bu haqda bir necha qarashlar bor. Baʼzilar bu soʻz “sof” soʻzidan kelib chiqqan deyдилar, chunki soʻfiy Iloh yoʻliga kirganlarning birinchi safida turuvchidir. Baʼzi olimlar uni “suffa” soʻzidan hosil boʻlgan, deb aytardilar: asʼhobu suffa hazrati Paygʻambar tirikligidayoq tarki dunyo qilgan taqvodor kishilar boʻlib, soʻfiylar shularga taqlid qiladilar, deb tushuntiradilar. Yana bir guruh olimlar soʻfiy soʻzi “safo” soʻzidan kelib chiqqan, chunki bu toifaning qalbi sidqi safo oftobidan porlab turadi, deganlar. Yana baʼzilar soʻfiy “sufuh” soʻzidan yasalgan sufuh – biror narsaning xulosasidir, bu jamoa xalqning xulosasi boʻlganligi sababli, ularni soʻfiy deganlar, deb yozadi. Soʻfiy soʻzi “sof” soʻzidan chiqqan deguvchilar ham bor. Abu Rayhon Beruniy boʻlsa “Osorul boqiya ...” asarida ushbu soʻzni yunoncha “suf”, yaʼni faylasuf soʻzining oxirgi qismidan yasalgan deb koʻrsatadi. Ammo koʻpchilik soʻfiy soʻzi arabcha “soʻz” soʻzidan hosil boʻlgan, degan fikrni bildiradilar. “Soʻz” soʻzining lugʻaviy maʼnosi jun va jundan toʻqilgan matodir. Soʻfiylar koʻp hollarda jun chakmon yoki qoʻy terisidan toʻqilgan poʻstin kiyib yurishni odat qilganlari uchun ularni jun kiyimlari (forscha pashminapoʻsh), yaʼni soʻfiy deb yuritganlar. Bizningcha, shu keyingi eʼtimologik maʼno haqiqatga yaqinroqdir, zero, soʻfiy soʻzining “soʻf” soʻzidan yasalishi arab tili qonun-qoidalariga mos keladi.

Agar “soʻf” soʻzidan soʻfiy yasalgan boʻlsa, oʻz navbatida, “soʻfiy”dan, “tasavvuf”, “mustasuf”, “mutassuf”, “mutasavvuf” soʻzlari hosil boʻlgan. Mustasuf oʻzini soʻfiylarga oʻxshatib, taqlid qilib yuradigan, ammo asl maqsadi amal-mansab, molu mulkka intilishdan iborat boʻlgan kishilarga nisbatan ishlatilgan soʻz boʻlsa, mutassuf tariqat va haqiqatda muayyan manzillarni egallagan, biroq soʻfiy darajasiga koʻtarila olmagan kishilardir. Qalban soʻfiyona gʻoyalarga moyil, tasavvufni eʼtiqod – maslak qilib olgan, lekin tariqat amaliyotini oʻtmagan, rasman soʻfiy boʻlmagan odamlar esa mutasavvuf boʻlib hisoblanganlar. Soʻfiylarning oʻzini ham Husayn Voiz Koshifiy “Futuvvatnomai sultoniyy” nomli asarida uch guruhga ajratgan: mushoiralar, mutarasmlar, muhaqqiqlar. Mushoiralar – tariqat ahlining muxlislari. Ular

darveshlarga muhabbat bilan qaraydilar, darveshlar suhbatida ishtirok etadilar, ularning xizmatlarini bajaradilar va savobga o'zlarining sherik deb biladilar. "Mutarasm" so'zining ma'nosi rasmu rusumga ergashuvchi demak, ammo mutarasmlar darveshlarning odatlariga zohiran taqlid qilsalar-da, botinan hol talabgoridirlar va shu toifaga ixloslari tufayli ilohiy fayzdan bahramanddirlar.

Muhaqqiqlar – Haqqa yetganlar, ularni oliy martabali so'fiylar deb ta'riflash mumkin. Haqiqiy avliyolar, shayxi murshidlar shular ichidan yetishib chiqqan. Bu o'rinda muhaqqiq so'fiylarning najib sifatleri xususida to'xtab o'tish joiz deb hisoblaymiz.

Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, chin so'fiy o'zlikdan va foniylar dunyodan kechgan va Haq baqosida o'zligini qayta topgan zot bo'lib, suratda bandayu, ma'nida ozod kishidir. Surat – tashqi ko'rinishda banda bo'lish – jism-tanani Iloh toatiga bag'ishlash bo'lsa, ma'nida ozodlik-botinni barcha aloqalardan tozalab, ruhni hur va pok saqlash demak. So'fiyga hiech bir narsa va hiech bir kishi qaram bo'lmasligi; uning o'zi ham hiech bir narsaning va hiech bir odamning qarami bo'lmasligi kerak.

So'fiyning ozodligi deganda tasavvuf ahli solikning bashariy sifatlardan mutlaq qutulishi va ilohiy fikr sifati bo'lmish pok ruh ko'rinishida istig'no olami – Tangri taolo olamining zarurlari bepoyonligi kullar idrok etishini anglaganlar. So'fiy yana "sirri sof, aqli yetuk, muhabbat ahliga bil bog'lagan" "Koshifiy" bo'lishi, nafasidan bedardlar qalbi bedor bo'lmog'i kerak. So'fiylar ruhoniylar bilan suhbat quradigan, kayhonu falak asroridan mujda keltiradigan, farqni ixtiyoriy ravishda bo'yinga olib, tabiiy axloqni tark eta borib, ilohiy axloqni kasb etuvchi, ezgulik yo'lida jonini fido qiluvchilardir, ular borliq va yo'qlik, zamon makondan xorij, azalu abadni birlashtirgan mukarram zotlardir.

Davrlarning almashinishi, shohlarning o'zgarishi, siyosat rayosat darvesh so'fiyning e'tiqodiga, xulqiga ta'sir qilmasligi kerak, so'fiy mayda manfaatlar, odamlarning kundalik tashvishlarigina emas, umuman foniylar dunyoning g'amu muammolaridan ustun turadigan, tafakkurning sathi falaklar qadar qamrovli, qalbida ma'nolar bulog'i qaynab turgan komil inson hisoblangan.

Bunday karomatli insonlarni xalq aziz-avliyo, qudsiy nafasli kishilar sifatida alohida e'zozlagan. Bu zotlar atrofdigalar ongi va shuuriga qattiq ta'sir o'tkazganlar va ma'naviyat sultonlari bo'lib maydonga chiqqanlar. Ularning so'zi va harakati, xislati va axloqi hammaga ibrat qilib ko'rsatilgan. Jahonning butunligi, obodonlik osoyishtalik Parvardigor fayzini yetkazuvchi shu tabarruk zotlarning duosi, xayrli ishlariga vobasta deb qaralgan. Shu asnoda avliyo-anbiyoning merosxo'ri – davomchisi degan aqida shakllangan. Ya'ni garchi Payg'ambari oxir zamon payg'ambar Muhammad sallallohu alayhi vasallamdan keyin payg'ambar kelmasa-da, ammo qutbi kirom valilar har zamonda paydo bo'lib, xalqni islom haqiqatlariga hidoyat etadilar, to'g'ri yo'lga boshlaydilar.

Demak, avliyo – jahonning nuri, insonlar ko'zining gavhari. Avliyo Mustafoning izidan borgan va uning nafasidan bahraman odam. Nizomiddin Avliyo safo yo'lida yuruvchi shunday bir zotki, Mustafo orqasidan qadam-baqadam boradi. Uning bunday parvarish topgan saodatli siyrati payg'ambar debochasining nusxasidir.

Alisher Navoiy ham Bahouddin Naqshband va Abdurahmon Jomiyning garchi Xusrav Dehlaviy kabi payg'ambar davomchisi deb atamasa-da, lekin ularni “murshidi ofoq”, “koshifi asrori iloh”, barcha ishlardan xabardor karomatli va pok niyatli zotlar sifatida ta'rif-tavsif etadi.

Bu faqat shoirlarning hayajonli ta'rif-tavsifi emas, albatta. Buni o'rta asrlar kishisining tafakkur tarzi va dunyoqarashi ifodasi deb bilmoq kerak. So'fiy va darveshlar haqiqatan ham katta nufuz va obro'ga ega edilar. Muqtadir shayxlargina emas, qalandarlar, eshonlar, majzub, “devonalar”, oddiy darveshlarni ham odamlar hurmat qilganlar. Shuning natijasi o'laroq, darveshlik harakati keng quloq yoygan darveshlik udumlari shakllanib, darveshlar alohida bir toifa – tabaqa sifatida jamiyatda muhim o'rin egallagan.

Biroq bu birdaniga yuzaga kelgan harakat emas, aytib o'tganimizday, tasavvuf va darveshlik harakati uzoq tadrijiy tarixga ega. Olimlar tasavvuf tarixini dastlab ikki davrga ajratadilar: birinchi – zohidlik davri, ikkinchisi – oriflik va oshiqlik

davri. So'fiylarning o'zini ham orif so'fiylar, zohid so'fiylar, rind so'fiylar, faqir so'fiylar, faylasuf so'fiylarga ajratish mumkin.

Zohidlik davri so'fiylari (chunonchi: Ibrohim Adham, Hasan Basriy, Abuhoshim Kufiy va boshqalar) taqvo va parhyezkorlikni bosh maqsad deb bilgan bo'lsalar, keyingi davr so'fiylari tafakkuriy-shuuriy rivojlanish – ya'ni dunyoni va Ilohni bilish, tanishni asosiy maqsad deb hisoblaganlar. Birinchi davrni tasavvufning ibtidoiy davri («avvalgi davr») sifatida tilga oladilar. Oriflik davri deb ataganimiz ikkinchi davr ham (bu IX asr o'rtalaridan boshlanadi) bir necha bosqichlarga ega. Chunonchi, IX–X asrlar – xonaqohlarning paydo bo'lishi, tariqat rusumlarining shakllanish davri. XI–XII asrlar – tasavvuf maktablari, silsilalarning tarkib topish davri. Bunda Misr, Bag'dod, Basra, Buxoro, Nishopur, Termiz, Balx shaharlari tasavvuf va tariqat markazlari sifatida muhim rol o'ynagan. Natijada Misr, Xuroson, Movarounnahr, Iroq va Turkiston maktablari shuhrat topgan.

XIII asr oxiri – XIV asr boshlari tasavvuf tarixida alo-hida bir mahsuldor davridir. Bu davrga kelib, tasavvuf ham nazariy-ilmiy nuqtai nazardan, ham amaliy harakatchilik nuqtai nazaridan o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan edi. Tasavvuf adabiyotining gullashi ham shu davrga to'g'ri keladi. Ayniqsa, Najmiddin Kubro (1145–1221), Muhyiddin Ibn Arabiy (1165–1240), Yah'yo Suhravardiy (1155–1191) singari mutafakkir shayxlar, Farididdin Attor (vaf. 1220), Ahmad Yassaviy (vaf. 1166), Jaloliddin Rumiy (1207–1273) kabi ulug' so'fiy shoirlar tasavvuf ilmining doirasini kengaytirdilar, uni falsafa va hikmat bilan boyitdilar. Agar IX–XI asrlarda tavhid asoslarini chuqurlashtirishga katta e'tibor berilib, tasavvufning fano va baqo kabi tushunchalari, Haqqa vosil bo'lish mayli shiddat bilan targ'ib qilingan bo'lsa, XIII asr o'rtalaridan boshlab, tafakkuriy-ahliy yo'nalish yetakchilik qila boshladi. Bu falsafiy oqim tasavvuf tarixida «vahdatul vujud» nomi bilan shuhrat topdi. So'fiylar endi koinot tuzilishi, odamlarning hususiyatlari, olam va odam munosabatlari, komil inson anglamlari bilan bosh qotiradigan bo'ldilar. Natijada Ibn Arabiy va Jaloliddin Rumiy kabi zotlarning asarlarida butun bir falsafiy tizim o'z ifodasini topdi, ular ilohiy kashfu karomat, ruhiy-psixologik holatlar, botiniy latifliklar bilan birga, real insoniy hayot haqida ham ko'p ajoyib fikrlarni bayon

etdilar. Shunday qilib, tasavvuf Sharq fikriy taraqqiyotidagi ko'p asrlik tajribalarni o'z ichiga qamrab olib, uni rivjlantirdi, din va falsafa, hikmat va vahdat, kalom va hadis ilmlarini birlashtirdi, ilohiy ilmlar bilan dunyoviy ilmlarni o'zaro bog'lashga harakat qildi. Natijada tasavvuf Sharq kishisining tafakkur tarzi va axloq normasini belgilaydigan hodisaga aylanib qoldi.

Tasavvuf tarixiga nazar tashlar ekanmiz, islom dinidagi mazhablar, qarashlar xilma-xilligi so'fiylar hayoti va dunyoqarashiga ham inchunin ta'sir etib turganini ko'ramiz. Xususan, sunniy va shia mazhablari orasidagi kurash sezilarli iz qoldirgan. Eron olimlari, jumladan, «Tasavvuf istilohlari sharhi» (Tehron, 1347 hijriy yili) nomli qomus muallif Sayid Sodiq Guharin tasavvufning paydo bo'lishi va qaror topishida shia mazhabi qarashlarining ta'siri borligini ta'kidlaydi. Boshqa bir qator olimlar yunon falsafasi, qadimgi zardushtiylar, hind falsafiy-asotiriy qarashlarining rolini ko'rsatadilar. Tasavvuf amaliyoti va falsafasida bu buloqlarning samarali ta'siri bo'lishi mumkin. Bu yerda boshqa narsani ta'kidlamoq kerak: birinchidan, islomiy tasavvuf o'zi o'zlashtirgan jamiki narsalarini islom ruhida qayta ishlab, shariatga muvofiqlashtirgan. Ikkinchidan, biz aytmoqchi bo'lgan fikr shuki, shia va sunniy mazhablari orasidagi kurash tasavvuf silsilalarining yo'nalaishlarini belgilagan. Chunonchi, tayfuriya, suhravardiya, hululiya, firdavsiya kabi silsilalar ko'proq shiachilikka moyil bo'lsalar, yassaviya, qodiriya, naqshbandiya suluklari sunniy mazhabida mustahkam turgan tariqatlar edi. Hazrati Bahouddin Naqshbandning asosiy jiddu jahdi ham tasavvuf va tariqatni sunniy mazhabiga moslashtirish, uni shiachilikka xos jahru samo'lardan tozalashdan iborat bo'lgan. Natijada naqshbandiya sunniy mazhabli aholi orasida chuqur yoyilgan.

Ammo Najmiddin Kubro asoslagan kubraviya silsilasida shia va sunniy mazhabidagi kishilar birga ta'lim olardilar. Chunki ulug' shayxning o'zlari mazhab va maslaklarga e'tibor qilmagan. Najmiddin Kubro vafotidan keyin esa shogirdlarining bir qismi sunniy tariqatiga (Sayfiddin Boxarziy kabi), bir qismi esa shia asosidagi tariqatlarga (Sa'diddin Hamaviy kabi) qo'shilib ketganlar.

Shu kabi Jaloliddin Rumi nomi bilan bog'liq bo'lgan mavlaviya mazhabi ham sunniy yo'nalishdagi tariqat bo'lsa-da, lekin diniy va mazhabiy ayirmalar ularda u

qadar ahamiyatli bo'lmagan. Bugina emas, Rumiylar umuman dinlarning o'zini ham bir-biridan ustun qo'ymay, ularni Olloh sari olib boradigan turli yo'llar deb qaragan.

Tasavvuf tarixi haqida gapirar ekanmiz, hazrati Bahouddin Naqshbanddan keyingi davrni ham baholashimiz lozim bo'ladi. XV–XVI asrlar Movarounnahr va Xurosonda naqshbandiya to'la tantana qilib, gullagan davr bo'ldi. Ayniqsa, Xoja Ahrori Valining amaliy va Mahdumi A'zam-Ahmadi Xojagonning ilmiy faoliyatlari tufayli naqshbandiya mustahkamlandi, nufuzi oshdi va Hindiston, Arabiston yerlariga yetib bordi, Turkiyaga tarqaldi.

Naqshbandiyadan keyin tasavvuf tarixida boshqa silsila vujudga kelgan emas. Eron va Hindistonda ayrim yangi tariqatlar shakllangan, lekin ular shoxobchalar bo'lib, tasavvuf uchun yangi nazariy va amaliy yo'nalish bermadi. Umuman XV asrdan keyin tasavvufning nazariy-falsafiy jihati so'na boshladi. Mahdumi A'zam risolalari naqshbandiya aqidalarini sharhlash va chuqurlashtirishdan iboratdir. Hindistonda bir qadar tafakkuriy siljish bo'lgan. Jumladan, «vahdatush shuhud», «vahdati mavjud» oqimlarini yangi falsafiy oqimlar deb qarash mumkin. Mirzo Bedil ijodiga bu qarashlarning ta'siri bor. Ya'ni unda barcha ilmlarni inson shaxsi bilan bog'lash, inson va uning ruhini tadqiq etishga urinishi bo'lgan. Biroq, baribir XV asrdan keyingi davrda ilgari to'plangan tajribani o'zlashtirish, sharhu tafsir qilish va targ'ib etish bilan shug'ullanildi. Shuning uchun eng toza va jur'atli fikrlarni biz IX–XIII asrlarda yashagan so'fiylarda uchratamiz. Tasavvufning klassik davri ham shu davrdir.

Tasavvuf g'oyalarining sarchashmalari ustida bahs bo'lgani-day, birinchi so'fiylar kim edi, degan savolga ham turli xil javoblar mavjud. Husayn Voiz Koshifiy «Futuvvatnomai sultoniyy» asarida («Meros» nashriyoti, 1994) keltiriladikim, birinchi so'fiy Odam alayhissalomning farzandlaridan biri Shish degan kishi edi. U oq po'stin kiyib yurgani uchun shu nomni olgan. Alisher Navoiyning «Nasoyimul muhabbat» asarida birinchi so'fiy sifatida hazrati Payg'ambarimizning zamondoshi va muhibi Uvays Qaraniy tilga olinadi. Lekin Abdurahmon Jomiyning «Nafahotul uns» asarida birinchi marta el orasida so'fiy laqabi bilan shuhrat qozongan kishi Abuhoshim Kufiy ekanligi aytilgan. Uni Abuhoshim As so'fiy Al

Kufiy ham deydlar. Jomiyning yozishicha, Abuhoshim So'fyoni Savriy degan boshqa bir atoqli darvesh bilan zamondosh bo'lgan ekan. So'fyoni Savriy hijriy 191 (milodiy 807) yilda olamdan o't-gan. Abuhoshim esa Guharinning ma'lumotiga qaraganda, 788 yilda vafot etgan («Sharhi istilohoti tasavvuf», I jild. Muqaddima, 55-bet). So'fyoni Savriy deydi: «Men Abuhoshimni ko'rganimga qadar so'fiy nima ekanini bilmas edim va ungacha ham zuhd va muomala va vara'da, tavakkul tariqi va muhabbat tariqida sobit buzurgvorlar bor edilar, lekin avval kishikim uni so'fiy deb atadilar ul edi va ungacha biror kishini bu nom bilan atamagan edilar» («Nafahotul uns», Toshkand, 1913, 27-bet).

«Abuhoshim nasroniy rohiblar kabi uzun jun kiyim kiyib yurar va hamisha taqvo bilan kun o'tkazardi» (Guharin, ko'rsatilgan asar, 53-bet). Sayid Sodiq Guharin bundan tashqari Jobir bin Hayon (822 yilda favot etgan) va Abdak So'fiy (821 yilda vafot etgan)larni ham dastlabki so'fiylar sifatida tilga oladi. Shuni ham qayd etish kerakki, tasavvuf ahli Chor yori uzom va Rasulullohning yaqin sahobalaridan Salmon Forsiy hamda Imom Ja'far Sodiqni so'fiylik va valiylik xislati ko'ringan ulug' insonlar sifatida ehtirom bilan tilga oladilar. Mazkur zotlar inchunin juvonmardlarning pirlari sifatida ham zikr etiladi. Bejiz emaski, ko'p so'fiylar o'z shajaralarini shu uch zoti sharafiga yoxud ularning birovu vositasida Muhammad sallallohu alayhi vasallamga olib borib bog'laydilar. Chunonchi, «Nazmus silsila» asari muallifi Vasliy Samarqandiy (XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod etgan) urgutlik Eshoni Valixon silsilasini yozar ekan, ul kishining so'fiylik nisbatini quyidagicha belgilab chiqadi: hazarti Muhammad sallallohu alayhi vasallamdan Abu Bakr Siddiq raziyallohu anhuga, ul kishidan Salmon Forsiyga, ul janobdan Imom Ja'fari Qosim raziyallohu anhuga, ul janobdan Imom Ja'far Sodiqga, ul janobdan Sulton Abuyazid Bistomiyga, ul janobdan Abulhasan Xaraqoniya, ul janobdan Xoja Ali Formadiya, ul janobdan Xoja Yusuf Hamadoniya, ul janobdan Xoja Orif Revgariya, ul janobdan Xoja Mahmud Anjir Fag'naviya, ul janobdan Xoja Ali Rometaniya, ul janobdan Xoja Muhammad Boboyi Samosiya, ul janobdan Sayid Amir Kulolga, ul Janobdan Xoja Bahouddin Naqshband hazratlariga, ul janobdan Xoja Muhammad Alouddin Attorga, ul janobdan Ya'qubi Charxiya, ul janobdan

Xoja Ubaydulloh Ahrori Valiga, ul janobdan Xoja Muhammad Zohidga, ul janobdan Xoja Darveshga, ul janobdan Xoja Amkangiyga, ul janobdan Xoja Muhammad Boqiybillohga, ul janobdan Xoja Ahmad Foruq – Imom Rabboniyga, ul janobdan Xoja Muhammad Saidga, ul janobdan Xoja Abdulahadga, ul janobdan Xoja Muhammad Obidga, ul janobdan Xoja Muhammad Musoxonga, ul janobdan Xoja Muhammad Siddiqga, ul janobdan Mavlono Husaynga, ul janobdan Mavlono Mirmuhammad Ibrohimga, ul janobdan hazrati Eshon Xoja Valixonga so'fiylik nisbati o'tib kelgan. Demak, naqshbandiya silsilasi Salmon Forsiy va Abu Bakr Siddiq raziyallohu anhumalar oraqli Payg'ambarimizga olib borib ulangan.

Shu zaylda, tasavvuf tarixi islom tarixi bilan birga rivojlanib, islom madaniyati va ma'rifatiga o'lgan hissa bo'lib qushildi. Agar dastlabki paytlarda Kufa, Basra va Bag'dod shaharlarida sanoqli darajada zohid sufiylar yashagan bo'lsa, bora-bora musulmon olamida shayxu mashoyixlar, so'fiy darveshlar, qalandarlarning soni ko'paydi, yuqorida aytganimizday bu o'ziga xos bir harakatga aylandi. Birigina Abdurahmon Jomiyning «Nafahotul uns minal hazarotul quds» nomli kitobida 664 ta shayxu so'fiyning nomi zikr etiladi. Bu XV asrgacha yashab o'tgan atoqli so'fiylar tazkirasi, vaholanki ulardan ko'plarining nomi Jomiy kitobida zikr eitmagan, Navoiy ularning bir qismini «Nasoyimul muhabbat» asariga kiritgan. Shulardan yuzdan ortiqrog'i Turonzaminda yetishib chiqqan buzurgvorlar hisoblanadi. XV asrdan keyin ham yana qancha azizu avliyo yashab o'tganlar.

Tasavvuf tarixi haqida qisqacha nigorishimiz (obzor) nihoyasiga yetar ekan, yana bir nuqtani ta'kidlamoqchimiz: Tasavvufda turli yo'nalishlar, ya'ni zohidona tasavvuf, orifona tasavvuf, oshiqona va rindona tasavvuf oqimlari bo'lgani kabi so'fiylar ham turli qarashlarga ega bo'lgan har xil tabiatli kishilar edilar. Ular orasida zohidlar, mo'tadil oriflar, isyonkor oshiqlar, majzub devonalar, darbadar qalandarlar, donishmand faylasuflarni ko'ramiz.

«Mavlono Jaloliddin, uning hayoti, falsafasi, asarlari» nomli kitob muallifi, turkiyalik olim Abdulboqiy Go'pyonarli so'fiylarning sakkiz toifasini ajratib ko'rsatadi. Chunonchi:

1. Hayot va dunyo lazmatlariga qattiq bog'langan so'fiylar. Ular gunohu savob, isyon va axborni arziyas, ortiqcha deb biladilar. Shar'iy amrlar jamiyat intizomi uchundir, bizga u taalluqli emas, biz zavqu hol kishilarimiz, taqvodan xalosmiz deb o'ylaydilar.

2. Koinotni Parvardigor zoti olami tajallisining surati deb biladigan so'fiylar. Ular dunyoni naqsh va ranglardan deb bilib, butun olamni esa Parvardigorning zotidan iborat deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, Mutlaq Iloh dunyo suratida tajalliy etibdur va mohiyat Uning o'zidir. Oshiq va Ma'shuq ham Udir, demak, haqiqiy qibla ham Uning O'zidir.

3. Hamma narsani Mutloq Iloh tajallisi deb bilib, Isoga o'xshab fikr yuritadigan va o'ng yuzingga shapatilasalar, chap yuzingni ham tut, degan aqidani olg'a suradiganlar. Ular zulmga e'tiroz bildirmaydilar, ammo mazlumlarga iloji boricha iltifot ko'rsatadilar. Ular uchun dunyo va uning ishlari ma'nisiz, arziyas, inson burchini Ilohni tanishdan iborat deb biladilar.

4. Falsafani, aqlni rad etuvchi so'fiylar. Ular xayol olamiga g'arq bo'lib, lohut olamidan so'z aytadilar, o'tmishdan va kelajakdan karomat qiladilar. «Yer yuzidan xabarlari yo'q, ammo osmonni qadamlab kezib chiqqanday gapiradilar. Oyoqlari ostidagi quduqni bilmaydilar, lekin sayyoralar sayriyu samoviy ajoyibotlardan so'zlaydilar» (Go'pyonarli, o'sha kitob, 292-bet).

5. O'z tasarruflarida falsafa va hikmatni rad etmoqchi bo'lgan, lekin aslida so'fiyona aqidalarni falsafiy mushohadalar bilan sinovdan o'tkazgan, omuxta etgan so'fiylar. Bular orada qolganliklari uchun shariat ahli tomonidan ham, tariqat ahli tomonidan ham malomatga uchraganlar.

6. Tasavvufning nozik haqiqatlari, falsafa va hikmat bilan mojarolarini sezgan holda, ammo shariatdan ko'ngil uzolmaydigan so'fiylar. Ular tariqat odobini shariat ahkomiga singdirib yuborishga intiladilar va tavhid ilmida mutaassiblar bilan bir xil e'tiqodda bo'lishga urinadilar.

7. Shunday so'fiylar ham bo'lganki, o'zlarini zamon Payg'ambari, ko'kdan tushgan Mahdi deb e'lon qilganlar. Zamona oxir bo'lgani, oxirat va dunyo birlashgani haqida xabar beradilar, o'zlarini Olloh zotining yerdagi ko'rinishi,

Buyuk adolat davrining asoschisi deb tanishtiradilar. Bunday urinishlar tarixida qonli fojealar bilan tugagan.

8. Arosatda, ziddiyatlar ichida qolgan so'fiyamo kishilar ham bo'lgan. Ular na toza musulmon, na butunlay g'ayri iymondirlar. Dardlari ichlarida, yonib, qiynalib yuradilar. Biror dinga yoki mazhabga bog'lanmaydilar. Ammo ularning botiniy olami nihoyatda boy. Ular zohirlarini berkitib sir saqlab yuradilar. Ularning a'moli va so'zlariga diqqat qilsangiz, ziddiyatni ko'rasiz. Barcha hollarda Ollohga bandalikni bajo keltiradilar va ayni holda suratu siyratlar, rasmu-rusumlarni pisand qilmaydilar, axloqu ilmlari bilan barchadan ustunliklarini namoyon etadilar, zakovat va qobiliyatlari hayratlanarlidir...

Shu bois tasavvuf ta'limotidagi barkamol avlodni tarbiyalash to'g'risidagi g'oyalardan ta'lim tizimida, shu jumladan, talaba ma'naviyatini shakllantirishda foydalanish, uning zamonaviy usullarini ishlab chiqish davr talabidir.

1.2. Talabalar ma'naviyatini shakllantirishda tasavvuf ta'limotidan foydalanishning hozirgi holati va imkoniyatlari

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan xalqning ma'naviy kamolotiga bog'liq. Ma'naviyat va ma'rifatni yuksak darajaga ko'tarmasdan turib, ijtimoiy taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ma'naviyatimizning muhim sarchashmalaridan biri, milliy va tarixiy qadriyatlarimizga umumbashariy umuminsoniy va umumislomiy boyliklarga tayanmog'imiz lozim.

Haqiqatan ham, islomiy qadriyatlar, jumladan, tasavvuf ilmini chuqur, teran o'rganishimiz lozim, chunki ular ma'naviyatimizning tarkibiy qismi sifatida bizga — insoniyatga, xalqqa, jamoatga suyanch-tayanch va kuch-quvvat bo'lib xizmat qiladi.

Tasavvuf ilmiga nisbatan e'tiborsizlik, dunyoviy ilmlar bilan bir qatorda diniy ilmlarni mukammal bilmaslik salbiy oqibatlarga olib kelgan. Ayrim odamlar islom ma'naviyatining mohiyatini, mazmunini teran va atroflicha bilmaganligi natijasida turli diniy-ekstremistik harakatlarga kirib qolishi mumkin. Diniy ilmsizlik orqasidan islom madaniyatiga munosabat yuzaki, ko'r-ko'rona bo'lib qolishi mumkin emas.

Demak, bugungi vaziyat, hayotning o'zi ilohiy ilmlarni mukammal egallash, ajdodlarimiz merosini o'zlashtirish bilan birga dunyoviy ilmlarni o'rganishni talab etadi.

Shu bilan birga jamiyatimiz a'zolari, xususan, yosh avlod dunyoqarashida muqaddas islom dinimizga bo'lgan sog'lom e'tiqodni saqlagan holda turli diniy ekstremistik kuchlarga, zararli oqimlarga qarshi kurashish lozim.

Tasavvuf ta'limoti sobiq sho'rolar davrida tazyiq ostiga olingan. Hukmron mafkura nuqtai nazaridan ikkinchi darajali ilm deb hisoblangan. Bu ilmiy merosga mana shunday salbiy munosabatda bo'lish, jamiyatimizning ma'naviy va axloqiy hayotiga zarar yetkazdi. Zero, bu ilmni egallamasdan turib, milliy madaniyat va an'analarimizning ildizini, serqirra ma'naviy merosimizni to'g'ri tushunishimiz, idrok etishimiz, o'zligimizni anglashimiz mushkul bo'ladi.

Tasavvuf ta'limotini o'rganmasdan turib, o'rta asrlar musulmon Sharqi madaniy hayoti haqida aniq tasavvurga ega bo'lish mumkin emas.

Tasavvuf ilmi xalq hayotiga, jamiyat manfaatiga xizmat etish bilan muhim ahamiyat kasb etadi, natijasi esa mustaqil diyorimizda barkamol insonni tarbiyalash bilan uzviy bog'liqdir.

Barkamol insonni tarbiyalash masalasining ijobiy hal etilishida o'zining hayotiy ilg'or g'oyalari bilan asrlar davomida munosib hissasini qo'shib kelayotgan tasavvuf ilmining bunyodkor g'oyalari muhim rol o'ynadi. Shu bois tasavvuf ilmi g'oyalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida, jumladan oliy ta'lim tizimida samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Talaba – yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda va ularni komil inson qilib tarbiyalashda tasavvuf ta'limotining o'рни katta. Tasavvuf ta'limoti tariximizda qudratli bir mafkura sifatida paydo bo'lib, rivojlanib, odamlarni haq yo'lga, to'g'rilik va yaxshilikka boshlagan, komil insonni tarbiyalashda muhim o'rin tutgan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Xorazmiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Mashrab, Sakkokiy, Huvaydo, So'fi Olloyor kabi o'nlab allomalarimiz tasavvuf g'oyalarini o'z asarlariga singdirganlar, ulug' shayxlar timsolini yaratib, ibrat qilib ko'rsatganlar. Shu boisdan ham xalqimizning ko'p asrlik ma'naviyat tarixi, pedagogik qarashlari, tasavvuf g'oyalaridan yosh avlodni vatanparvar, imonli-e'tiqodli, halol, bo'lib yetishishida samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday jamiyatning ijtimoiy-madaniy yuksalish darajasi, mazkur jamiyatda ijtimoiy adolat me'yorlariga to'g'ri rioya qilinishi bilan belgilanadi. Tarixga nazar tashlasak, turli jamiyatlarda adolat me'yorlarini yaratish xilma-xil yondashuvlarga tayangan holda amalga oshirilgan. Islom madaniyatiga asoslangan jamiyatlarda asrlar davomida adolatning nisbatan mukammal tizimi vujudga keltirilgan. Ajdodlarimiz islom asoslariga tayangan holda zamon talablaridan kelib chiqib, jamiyatda adolat me'yorlarining buzilmasligi uchun yuksak ma'naviy ta'sir choralari ishlab chiqqanlar. Bugungi kunda ham bunday ma'naviy-ruhiy ta'sir kuchidan foydalangan holda, jamiyatda ijtimoiy adolat me'yorlarini o'rnatishga harakat qilinmoqda.

Bu borada Naqshbandiya tariqatining asoschisi Bahovuddin Naqshband quyidagi goyani ilgari suradi: "qo'lingdan kelguncha birovga ozor yetkazma, qahr-u g'azab o'tiga aslo tashlama, agar abadiy rohat istasang, hamisha o'zingni ranjit, birovni ranjitma".

Allomaning fikriga ko'ra, shaxsiy xotirjamlik inson va jamiyat hayotining asosi sifatida e'tirof beriladi va uni ta'minlash uchun jamiyatning barcha a'zolari mas'ul ekanligi ta'kidlanadi. Bu esa o'z navbatida, shaxsning faollashuvi orqali jamiyat a'zolarining ijtimoiy adolatga erishishini belgilab beradi.

Abu Rayhon Beruniy ham o'z asarlarida ijtimoiy adolat tamoyilini jamiyat tuzilishi, davlat qurilishi va ijtimoiy turmush tarzining turli jabhalariga singdirish zarurati xususida so'z yuritgan. Uning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston" kabi asarlarida: "... jamiyatda turli ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini uyg'unlashtirishi ijtimoiy biqqlik, norozilik kayfiyatidan jamiyat a'zolarini xalos qilish uchun mafkuraviy ta'sirlar, amri ma'ruflarning o'zigina yetarli bo'lmaydi, jamiyat a'zolari o'z mol-mulki, turar joyi, o'zi va oila a'zolarining zaruriy ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli moddiy ne'matlarga ega bo'lishi, ayniqsa uni o'z peshona teri bilan halol ishlab topishi darkor", - degan g'oya ilgari suriladi.

Abu Ali ibn Sino tomonidan asoslangan ijtimoiy adolat nazariyasi o'zida din hamda e'tiqod erkinligi va ularga mas'uliyat bilan yondashish, jamiyatda milliy-etnik totuvlik, hamjihatlik, murosa va bitimlar asosida doimiy muvozanatni o'rnatish, hududiy-siyosiy manfaatlarga hurmat bilan qarash va ularga nisbatan sabr-toqatli bo'lish, ma'naviy-axloqiy holatlar va xilma-xilliklarga bosiqlik bilan munosabatda bo'lish g'oyalarini ifodalagan.

Jaloliddin Davoniyning asarlarida adolat, burch, vijdon kabi axloqiy kategoriyalar chuqur tahlil etilgan. Allomaning ijtimoiy, axloqiy va pedagogik asarlaridan biri "Axloqi Jaloliy" hisoblanadi. Unda mutafakkir majburiy ta'lim metodini faqat maktabda emas, oilada ham qo'llashni qattiq tanqid qiladi, jismoniy jazoga butunlay qarshi chiqib, bolaning ijtimoiy ongi va tafakkuri o'sgandagina u har bir narsani qunt bilan qiladi, - degan fikrni ilgari suradi. Samarqandda yashab, ijod etgan alloma Am'aqi Buxoriyning qayd etishicha, davlatni boshqarish

jarayonida alohida shaxs hamisha ham to'la haq bo'lavermaydi. Shu boisdan ham maslahat-mashvarat omilining ijtimoiy dolbzarligi yanada ortadi. Aynan shu fikrni Abu Nasr Forobiy. "Davlatni boshqarish rahbarlik san'atini o'zida ifoda eta oladigan bir qator olijanob xislatlarni mujassamlashtirishni taqozo etadi va bunday iste'dod bir shaxsda mavjud bo'lishi kam uchraydigan hol bo'lganligi uchun davlatni bir guruh fazilatli shaxslar boshqargani maqsadga muvofiqdir", - deb uqtiradi.

Ushbu g'oyalarning talaba ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rni, holati va imkoniyatlarini o'rganish, tahlil qilish, asosli xulosalar chiqarish tadqiqot ishimizning asosiy vazifalaridan biridir. Shu bois pedagogika fakulteti o'quv jarayonida DTSda belgilangan dastur, o'quv reja, ishchi dasturlari va boshqa me'yoriy hujjatlarni talabalar ma'naviyatini shakllantirishdagi holati va imkoniyatlari o'rganildi.

Biz muammoning mavjud holatini aniqlash maqsadida 2-kurs talabalariga so'rovnomalar tarqatdik. (1-ilova).

So'rovnomada tasavvuf haqidagi fikringiz? Tasavvufga oid qanday kitoblarni o'qigansiz? Ahmad Yassaviyning hikmatlaridan qaysilarini bilasiz? Bahouddin Naqshbandning "Qalbing ollohda, qo'ling mehnatda bo'lsin" degan so'zlarini izohlab bering; Najmiddin Kubroning mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashini tasvirlab bering; shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat so'zlarini izohlab bering; Samarqanddagi aziz avliyolar ziyoratgohlaridan qaysilarini bilasiz? kabi savollar bilan murojaat qildik.

Berilgan savollarning Ahmad Yassaviy hikmatlari, Naqshbandiyni ibratli so'zi, Najmiddin Kubroning vatanparvarligi, Samarqanddagi ziyoratgoh joylar to'g'risida muayyan tushunchalarga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Aniqrog'i, talabalarning 65 % i ijobiy javob berishdi. Ammo tasavvuf, unga oid adabiyotlar, shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat tushunchalari, tasavvufning asosiy g'oyalari haqidagi savollarga to'laqonli javob bera olishmadi. Buning sababi talabalarning milliy tariximiz, qadriyatlarimiz, an'analarimizni yetarli darajada bilmasligi, anglab yetmasligidir. Shu bois talaba ma'naviyatni shakllantirishda tasavvuf ta'limotini o'rganish va undan ta'lim-tarbiya tizimida foydalanish davr talabi bo'lib qolayapti.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan 5141700 - "maktabgacha ta'lim va sport yo'nalishi" o'quv rejasida pedagogika turkum fanlarini o'rganganimizda 1-kursda "maktabgacha pedagogika" – 106 soat, 2-kursda "umumiy pedagogika" – 106 soat, "maktkbgacha pedagogika" – 106 soat, "korreksion pedagogika va lagopediya" – 50 soat, 3-kursda "pedagogika va psixologiya" – 68 soat, "umumiy pedagogika" (YaPT, pedagogik mahorat) – 84 soat, "maktabgacha pedagogika" – 48 soat, "ijtimoiy va oila pedagogikasi" – 80 soat, "pedagogika fanlarini o'qitish metodikasi" – 68 soat, 4-kursda "bolalarni maktabga tayyorlash" – 40 soat, "tarbiyaviy ishlar metodikasi" – 40 soat, tanlov fanlar 1-kursda 80 soat, 2-kursda 50 soat, 4-kursda 100 soat, malakaviy amaliyot 1291 soat, malakaviy bitiruv ishlari 378 soat hajmda bajarilishi ko'rsatilgan. Ushbu kurs talabalari bakalavr yo'nalishida 1452 soat ma'ruza, 1272 soat amaliy, 150 soat laboratoriya, 934 soat seminar, 3536 soat hajmda mustaqil ishlarni bajarishi ko'zda tutilgan. Aniqrog'i, talaba bakalavriat yo'nalishida 9072 soat hajmda pedagogik yo'nalishdagi fanlardan saboq oladi.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan 2-kurs talabalariga "Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy xulq-atvor tushunchalarini shakllantirish" tanlov fani o'quv rejasiga kiritilgan. Ushbu fanga 50 soat ajratilgan bo'lib, undan 16 soati ma'ruza, 6 soati amaliy mashg'ulot, 28 soati seminar mashg'ulotlariga ajratilgan. Biz quyida ushbu fanning ishchi dasturda belgilangan rejani keltiramiz:

Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy xulq-atvor tushunchalarini shakllantirish – tanlov fanining rejasi (ma'ruzalar)

1.1 shakl

№	Mavzularning nomlari	Soat
1.	Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy xulq – atvor tushunchalarini shakllantirishning maqsad va vazifalari.	2
2.	Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy xulq – atvor tushunchalarini shakllantirishning oila va jamoatchilikning hamkorlikdagi faoliyati.	2
3.	Mustaqillik sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy xulq-atvor tushunchalarini shakllantirishda milliy qadriyatlardan foydalanish.	2
4.	Islomiy ma'naviyat va sharq mutafakkirlarini merosi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy xulq – atvor	2

	tushunchalarini shakllantirishning ahamiyati.	
5.	Maktabgacha yoshidagi bolalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda o'zbek xalq pedagogikasining o'rni.	2
6.	Maktabgacha yoshidagi bolalarda milliy xulq – atvor tushunchalarini shakllantirishda xalq an'alarining roli.	2
7.	Maktabgacha yoshidagi bolalarda milliy xulq – atvor tushunchalarini shakllantirishning usul va shakllari.	2
8.	Maktabgacha yoshidagi bolalarda milliy xulq – atvor tushunchalarini shakllantirishda mahalla va qo'ni-qo'shnilarning o'rni.	2
Jami:		16

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, berilgan mavzularning 4 tasida, ya'ni "Mustaqillik sharoitida maktabgacha yoshidagi bolalarda milliy xulq-atvor tushunchalarini shakllantirishda milliy qadriyatlardan foydalanish", "Islomiy ma'naviyat va sharq mutafakkirlarini merosi asosida maktabgacha yoshidagi bolalarda milliy xulq – atvor tushunchalarini shakllantirishning ahamiyati", "Maktabgacha yoshidagi bolalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda o'zbek xalq pedagogikasining o'rni", "Maktabgacha yoshidagi bolalarda milliy xulq – atvor tushunchalarini shakllantirishda xalq an'alarining roli" mavzularida talabalarga tasavvuf ta'limotini va uning g'oyalari to'g'risida tushunchalar berishning imkoniyatlari mavjud. Shuningdek, seminar mashg'ulotlarida berilgan quyidagi – "Islom dinida milliy xulq – atvor tushunchalarini shakllantirishning aks ettirilishi", "An'analarning milliy xulq – atvor tushunchalarini shakllantirishdagi o'rni", "Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy xulq – atvor tushunchalarini shakllantirishda xalq pedagogikasidan foydalanish", "Sharq mutafakkirlari merosida maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalalari" mavzularida ham talaba ma'naviyatini shakllantirishda tasavvuf g'oyalarini singdirish mumkin.

Mavoraunnahrda keng yoyilgan tasavvuf Yassaviya tariqati bo'lib, unga Ahmad Yassaviy asos soladi. Tariqatning asoslari Yassaviyning mashhur "Hikmat" asarida bayon etiladi. Ahmad Yassaviyning fikricha, shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma'rifat, ma'rifatsiz haqiqat bo'la olmaydi. Ularning har biri ikkinchisini to'ldiradi va takomillashtiradi. Yassaviy tariqatining asosida kamolotga uzlat va tarkidunyochilik orqali yetishish g'oyasi olg'a suriladi. Unga faqat bu dunyo rohati va farog'atidan

voz kechib, uzlatda toat va ibodat yo'lida zahmat chekib, mashaqqatli mehnat qila olgan kishigina yetib boradi. Xullas, Yassaviy tariqatida mashaqqatli mehnat va aziyat shariat yo'lida bo'lmog'i hamda tarkidunyochilik targ'ib etilsa-da, inson zoti sharif darajasida ulug'lanadi. Insonning har qanday mol dunyodan va davlatdan ustun turishi ta'kidlanadi.

Yassaviya tariqatidan farqli o'laroq, Kubraviya tariqati tarkidunyochilikni rad etadi. Kamolot yo'lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo noz-ne'matlaridan bahramand bo'lishning joizligi g'oyasi ilgari suriladi. Kubraviya tariqatida xalqqa va Vatanga bo'lgan muhabbat nihoyatda kuchli bo'lib, har qanday og'ir damlarda ham xalq bilan birga bo'lish, Vatanni mudofaa qilish va uning mustaqilligi uchun kurashga da'vat etiladi.

Naqshbandiya tariqati insonlarni halol va pok bo'lishga, o'z mehnati bilan kun kechirishga, muhtojlarga xayr-ehson berishga, sodil va kamtar bo'lishga chaqiradi. Uning "Qalbing ollohda, qo'ling mehnatda bo'lsin" degan hikmati Naqshbandiya tariqatining hayotiy mohiyatini ifodalaydi. U tarkidunyochilikni rad etib, mehnatsevarlik, odillik va bilimdonlikni targ'ib etadi. Naqshbandiya ta'limoti taraqqiyotiga keyingi asrlarda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Xo'ja Ahror kabi buyuk allomalar katta hissa qo'shadilar.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari 2-kurslarida o'qitilayotgan "Pedagogika tarixi", "Dinshunoslik", "Ma'naviyat asoslari", "Falsafa" fanlarini o'rganish orqali talaba-yoshlarda ma'naviy-axloqiy tushunchalarni shakllantirishning hozirgi holati o'rganildi hamda uning imkoniyatlari aniqlandi. Jumladan, 2-kurs talabalariga o'qitilayotgan "Pedagogika tarixi" fanidan tegishli me'yoriy hujjatlarda 22 soatlik ma'ruza mashg'ulotlari o'tish rejalashtirilgan (2-shakl).

Berilgan shakldan ko'rinib turibdiki, ushbu holatda tasavvuf ta'limoti to'g'risida talaba – yoshlarga tushuncha berish va ularning g'oyalari asosida yoshlar ma'naviyatini shakllantirishning foydalanilmayotgan imkoniyatlari borligi ma'lum bo'ldi:

“Pedagogika tarixi” fanidan ma’ruzalar

2-shakl

№	Ma’ruzalar nomi	Soat	Tasavvuf ta’limotini o’rganish imkoniyatlari
1	Kirish. Pedagogika tarixi fanining predmeti.	2	Qisman
2	Markaziy Osiyoda yeng qadimgi davrda ijtimoiy hayot, tarbiya. “Avesto”, “Alpomish” va “Manas” dostonlari. Markaziy Osiyoda VII-XIII asrlarda ijtimoiy hayot, din, madaniyat, ta’lim – tarbiya.	2	Bevosita
3	Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy ta’lim – tarbiya haqida. Abu Ali ibn Sinoning ma’rifiy qarashlari.	2	Bevosita
4	Markaziy Osiyoda XIV-XV asrlarda Temur va Temuriylar davrida ijtimoiy hayot va madaniyat, maktab va ta’lim – tarbiya.	2	Bevosita
5	Alisher Navoiy ilm – ma’rifat haqida. Abdurahmon Jomiy, Davoniy, Husayn Vois Koshifiy, Z.M.Boburlar ta’lim – tarbiya haqida.	2	Bevosita
6	Markaziy Osiyoda XVI-XIX asrning birinchi yarmida ijtimoiy madaniyat, ta’lim – tarbiya. Jahon Otin Uvaysiy va uning qizlar maktabi. Nodiraning insonparvarlik g’oyalari.	2	Bevosita
7	XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmida ijtimoiy hayot, maktab, ta’lim – tarbiya.	2	Qisman
8	Turkistonda jadidchilik harakati. Jadidlar ma’rifat, ta’lim – tarbiya haqida. A.Avloniy, A.Fitrat, H.H.Niyoziy va Shakuriyning pedagogik qarashlari. M.Behbudiyning ma’rifiy qarashlari.	2	Qisman
9	O’zbekistonda Sho’ro hokimiyatining dastlabki davrlarida maktab va pedagogika. Mustaqil O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi va pedagogik taraqqiyoti.	2	Qisman
10	Qadimgi Yunoniston va Rimda ta’lim – tarbiya.	2	Qisman
11	Ulug’ rus olimi K.D.Ushinskiyning pedagogik qarashlari. Yan Amos Komenskiyning ma’rifiy qarashlari. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda maktab va ta’lim – tarbiya tizimi.	2	Qisman
	Jami:	22	

Xulosa qilib aytish mumkinki, tasavvuf ta’limotining mazmun mohiyatini, uning g’oyaviy jihatlarini, mafkuraviy ko’rinishlarini o’rganish talaba ma’naviyatini shakllantirishda auditoriya, auditoriyadan tashqari mashg’ulotlar davomida foydalanish muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bunda:

Birinchidan, mavjud yuklamalarni oshirmasdan turib, mavzular uzviyligini va fanlararo aloqadorligini takomillashtirish;

Ikkinchidan, tasavvuf ta'limoti asosida talaba ma'naviyatini shakllantirishning pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish;

Uchinchidan, o'quv yuklamalari va mavzularning tarbiyaviy jihatlarini tahlil qilish kerak. Ana shundagina tasavvuf ta'limoti asosida talaba ma'naviyatini shakllantirish imkoniyati hamda quyidagi natijalarga erishish mumkin bo'ladi.

Birinchidan, tasavvuf ta'limotini o'rganish talabalarga bu ta'limot to'g'risida bilim beradi, ularning ma'naviyatini shakllantiradi;

Ikkinchidan, talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalaydi;

Uchinchidan, talabalarda nafsni tiyish, to'g'ri so'zlilik, mehnatsevarlik, halimlik, xushmuomilalik, vatanparvarlik kabi ma'naviy fazilatlarni rivojlantiradi.

II BOB. TALABALAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TASAVVUF TA'LIMOTIDAN FOYDALANISHNING MAZMUNI, SHAKLI VA METODLARI

2.1. Pedagogika turkum fanlari asosida dars jarayonida talabalar ma'naviyatini shakllantirishda tasavvuf ta'limotidan foydalanishning mazmuni va mohiyati

So'nggi vaqtlarda O'zbekistonda tasavvuf ta'limotini o'rganishga qiziqish kuchayib bormoqda. Bu, mustaqillikning birinchi qadamlaridayoq xalqning milliy ongi o'sayotgani, milliy g'ururi mustahkamlanib borayotganini ko'rsatuvchi ijobiy bir xoldir.

Sovet totalitar tuzumi davrida kishilarning diniy e'tiqodlariga nisbatan adolatsiz siyosat amalga oshirilishi natijasida ma'naviy qadriyatlarning yetuk cho'qqilaridan biri bo'lgan tasavvuf tariqatlar bid'at va xurofotning ko'rinishlaridan biri sifatida talqin etildi. To'qqiz asrga yaqin vaqt davomida Sharq va G'arb xalqlarining ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan bu ta'limot marksizm-leninizmning partiyaviylik va sinfiylik mezonlari bilan bog'langan siyosiy qolipiga sig'may qoldi, uni ilmiy, tarixiy jixatdan xolisona o'rganishga intilish xam ta'qiqlandi. Bu boradagi tadbirlar xam O'rta Osiyo xalqlarini o'z ma'naviy merosi, qadriyatlaridan ajratib, manqurtlarga aylantirishga qaratilgan siyosatning muhim qismi edi.

O'rta Osiyo xalqlarining boy madaniy merosini tasavvuf tariqatlarisiz to'la tasavvur etib bo'lmaydi. O'rta asrlarda yashagan va ijod etgan ko'pgina olimlar, yozuvchilar, yirik davlat arboblari ham tasavvuf ta'limotining turli tariqatlariga e'tiqod qilganliklari buning isbotidir. Akademik Erkin Yusupov tasavvuf tariqati to'g'risida to'xtalib "Tasavvuf milliy, diniy merosgina emas, balki umuminsoniy qadriyat hamdir. Biz 74 yil mobaynida ana shunday qadriyatdan ajragan xolda yoshlarimizga, kelajak avlodimizga tasavvuf tariqatidan saboq bera olmadik. Oqibatda o'quvchi va talabalarimiz milliy axlohida umuminsoniy meroslarga

sadoqat bilan qarashdek buyuk qadriyatlarni tarbiyalashda qo'pol xatolar kelib chiqdi"⁴, -degan edi.

Tasavvuf tariqati insonparvarlik g'oyalarini targ'ib etuvchi falsafiy ta'limotlar bilan uzviy bog'langandir. Boshqacha qilib aytganda, tasavvuf insonning mohiyati, jamiyatda tutgan o'rni, halollik, mehnatsevarlik, vijdon, iymon kabi xislatlarini falsafiy tahlil etishning o'ziga xos yo'lidir.

Ma'lumki, kishilik jamiyati rivojlanishi, davlat va boshqa turli siyosiy tuzumlar paydo bo'lishi va mustahkamlanishi, mulkiy va xuquqiy tengsizlik chuqurlashishi natijasida ijtimoiy adolatsizlik ham kuchaya bordi. Jamiyat chuqurlashib borayotgan tengsizlik va adolatsizliklarni himoya qilish va mustahkamlashga xizmat qiluvchi siyosiy tuzumlar, partiyalar, harbiy kuchlar, qonunlar, axloqiy va xuquqiy qoidalar tizimlari ham shakllandi. Siyosiy hokimiyatni, katta boyliklarni o'z qo'lida to'plagan ijtimoiy tabaqalar boshqalarni aldab talon-taroj qilish, mehnatidan adolatsiz foydalanish yo'liga o'tib oldilar. Turli xududlar istilo qilinishi, qaramlik holatiga tushib qolishi natijasida bir mamlakat doirasidagi ijtimoiy munosabatlarda keskinlashayotgan tengsizlik va adolatsizliklar milliy munosabatlar sohasiga ham kucha boshladi. Agressiv istilochilik urushlari kuchayishi ko'pgina mamlakatlarning boyliklari talon-taroj qilinishiga, xalqi esa og'ir asorat ostiga tushib qolishiga olib keldi.

Ana shu davrlardan boshlaboq jamiyat hayotida tobora chuqurroq tomir otayotgan adolatsizliklar va tengsizliklarga qarshi bo'lgan, insonparvarlik g'oyalarini oldinga suruvchi falsafiy ta'limotlar yuzaga keldi. Insonning mohiyati, jamiyatdagi o'rni muammosi, halollik, mehnatsevarlik, tenglik va teng huquqlilik bilan bog'liq bo'lgan axlosiy munosabatlarni kamol toptirish masalalari ijtimoiy fikr sohasida tobora kattaroq o'rin ola boshladi,

Insoniyatning niyatlari, umidlari har doim ham mavjud ijtimoiy tuzumlar yaratib bergan imkoniyatlar chegarasidan chiqib ketadi. Odamlarning orzu-umidlar, manfaatlariga to'la mos keladigan jamiyat hyech qachon bo'lmagan, bo'lishi ham mumkin emas. Inson hamma vaqt xam o'zi yashagb turgan davr sharoitlari va

⁴ Yusupov Erkin. Najmiddin Kubroning tasavvuf tariqati // Xalq ta'limi, 1995, 1,2-son, -48 b.

imkoniyatlaridan yuqoriroq turgan tuzumni havas qiladi va shunday jamiyatga intiladi. Bu intilishlar va ehtiyojlar asosida jamiyat har doim rivojlana boradi. Bu boradagi ehtiyojlar turtkisi bilan taqozo qilinayotgan jamiyat taraqqiyoti hyech vaqt biror bir chegaraga borib to'xtab qolishi mumkin emas.

Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichidagi sharoit va imkoniyatlardan qanoat hosil qilmaslik, ijtimoiy adolat va tenglikning yangi shakllariga intilish bo'lgusi tuzum xaqidagi turli xayoliy rejalar shakllanishiga olib keladi. Bularning hammasida ko'zlanilgan pirovard maqsad - odamlar o'rtasida tenglikka, teng huquqlikka, halollik va poklikka, adolat, va insonparvarlikka asoslangan munosabatlar qaror topishini ta'minlashga intilishdir.

Tasavvuf ta'limotida ko'rsatilishicha hayotiy muammolar bilan bog'liq bo'lgan iloxiy haqiqatga yetishish bosqichma-bosqich amalga oshadi. Bu bosqichlarning har birida inson haqiqatga asta-sekin yaqinlasha boradi. Eng yuksak haqiqat inson o'z vujudi, ichki muloxazasi va kechinmalari orqali yetishgan bilimdir.

Mutasavvuf olimlar bu haqda quyidagi misolni keltiradilar:

1. Olov kuydiradi. Men buni boshqalardan eshitganman, shuning uchun xam ishonaman.

2. Olov kuydiradi. Men bunga ishonaman, chunki uni ko'zim bilan ko'rdim.

3. Olov kuydiradi. Men bunga ishonaman, chunki olovda o'zim yonib, kuydim.

Yuqorida ko'rsatilgan uch bosqichda inson hiqiqatni to'laroq bilishga asta-sekin yaqinlashib boradi va nihoyat olov kuydirishini o'z vujudi bilan anglagach, oliy haqiqatga yetishadi. Demak, olovning kuydiruvchi mohiyati haqidagi bilimni birovlardan eshitish, o'rganish ham mumkin. Lekin masalaning mohiyatiga har kim o'z vujudi, e'tiqodi bilan yetishmog'i kerak. Shundagina ilm e'tiqod inson qalbiga chuqurroq singadi va uni adolat, haqiqat, iymon, insonparvarlik yo'liga boshlaydi. Bu-iloxiy haqiqatga yetishish nihoyatda murakkab ekanini ko'rsatuvchi ramziy bir misoldir. Barcha mutasavvuf olimlar Ollohning mohiyati haqidagi dastlabki bilimlarni o'z ustozlaridan olganlar, lekin ilohiy mohiyatni anglashga o'z vujudi bilan mustaqil yetishishga harakat qilganlar.

Islom dinida Ollohning mohiyati eng yuksak, olijanob fazilatlarining yig'indisi sifatida tasvirlangandir. Ollohg taalluqli bo'lgan har bir nomning mazmuni xam mana shunday fazilatlarining ifodasidir. Demak, Ollohning mohiyatini anglash unga xos bo'lgan adolat, yetuklik, barkamollik fazilatlarini dilga jo qilib, ma'naviy kamolot cho'qqilariga yetishish yo'lidir. Dilga xudoning nomini jo qilish insonning qalbini poklaydi, uni iymon, halollik, axloqiy poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik yo'liga undaydi. Shu sababli xam tasavvuf falsafasida dilga xudoning nomini jo qilib, xalol mehnat bilan kun ko'rishga intilish inson hayoti va faoliyatining asosiy mazmuni sifatida o'rta qo'yiladi.

Tasavvuf tariqatlarining mohiyatini turlicha talqin qilish inson hayotining mazmuni va maqsadini belgilashda bir necha xil qarashlar yuzaga kelishga sabab bo'ldi. Ayrim mutasavvuflar Xudoning mohiyatiga yetishish va uning anglashni uzluksiz bir jarayon deb tushundilar. Ular bir umr xilvatda o'tirib, dunyoviy ishlar bilan shug'ullanmay zikru-samo qilishni, shu yo'l orqali Ollohning mohiyatiga yetishiy, o'z dilini poklashni hayotning asosiy va yagona mazmuni deb bildilar. Ular shahar-ma-shahar, ko'chama-ko'cha, «yo Ollohu, yo Olloh» deb, zikr aytib yurib, foydali ijtimoiy mehnat bilan shug'ullanmadilar. Bular butun Osiyoda ma'lum bo'lgan darveshlar bo'lib, tasavvuf tariqatining mohiyatini, maqsadini cheklangan holatda tushungan, uni ijtimoiy, ma'naviy kamolotning foydali omiliga aylantirishga harakat qilmagan kishilardir. Darveshlar Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etganini ko'rsatuvchi biror bir dalil ham yo'q. Aksincha, darveshlarning samarasiz, egoistik faoliyati dinning bid'at, johillik, xurofot bilan aralashishiga olib keldi. Shu sababli darveshlar faoliyati diniy e'tiqodlar taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etdi, deb ayta olmaymiz.

Ikkinchi yo'l Ollohning mohiyatini anglash, uni dilga jo qilish orqali jamiyatda halollik, adolat, insonparvarlik g'oyalari tantana qilishiga erishish, hamma vaqt halol mehnat qilib, boshqalarni xo'rlamay va kamsitmay yashashga intilishdir. Bu o'rinda Ollohning sifatleri va mohiyati deb talqin etilgan olijanob xislatlar inson qalbini pokizalab, uni halol ishlarga undovchi ma'naviy omil sifatida talqin etilgan. Tasavvufning bu yo'li uzining asosiy mohiyati jihatidan diniy e'tiqod va iymonini

dunyoviy muammolar bilan bog'lash, ularni adolatli hal etishga hissa qo'shishga kishilarni undash bilan bog'langan edi.

Mutasavvuf allomalarning ko'rsatishicha, inson xudoning mohiyatini dilida anglab yetganidan keyingina halol mehnat qilishga, boshqalarni hurmat qilishga, ularning qadr-qimmatini yerga urmaslikka, turli kasb-hunarlarini o'rganish orqali tirikchilik qilishga harakat qiladi.

Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband insonning mohiyatini to'g'ri anglash, insonparvarlik g'oyalarini targ'ib etish bilan bog'liq bo'lgan falsafiy g'oyalarni tasavvuf tariqati orqali oldinga surgan allomalardir. Shu sababli ham ular, o'z davrida jamiyatdagi ma'naviy muhitni poklash, podshohlar va amaldorlarga ta'sir etib, ularni adolat yo'lidan boshlash, turli ijtimoiy ofatlarning oldini olish ishiga katta hissa qo'shdilar. Ular diniylik va dunyoviylikni uzviy bog'llab qarash orqali ilm va fanning rivojiga ham katta hissa qo'shdilar. Amir Kulol, Bahovuddin Naqshband, Xo'ja Axrori Vali va boshqalar o'z davridagi podshohlarni, yirik amaldorlarning rahnamosi bo'lib, ularni tarbiyalash va adolat yo'lidan boshlashga harakat qilganlar. Ularning ma'naviyat va ma'rifat borasidagi xayrli ishlari mahalliy xalqlarning ijtimoiy va madaniy taraqqiyot tarixida katta ahamiyatga ega bo'lgani shubhasizdir. Xo'ja Axrori Vali temuriylar davlati endigina inqirozga yuz tuta boshlagan davrlarda mamlakatda tinchlik, adolat o'rnatishga, podshohlarni odillik yo'lga boshlashga, ko'plab qonli urushlarning oldini olishga harakat qildi. Uning ta'siri orqasida mamlakatda ma'lum davrlarda osoyishtalik barqaror bo'ldi, dehqonchilik, savdo va hunarmandchilik rivojlandi, xalq ayrim og'ir soliqlardan ozod qilindi, obodonchilikka katta e'tibor berildi. U o'z ta'siri va barcha imkoniyatlaridan foydalanib hokimiyatparastlik girdobiga tushib qolgan temuriy shahzodalarni shaa'riy hukmlar va hadislariga asoslanib ish olib borishga chaqirdi. Shunday qilib, mutasavvuf olimlar va allomalar islom dinini oddiy e'tiqod sifatida emas, balki kishilarning ongi va qalbiga ta'sir etib, ularni adolat va insonparvarlik yo'lga chorlovchi ma'naviy omil sifatida targ'ib etdilar.

Pedagogika insonning ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanib, rivojlanib, kamol topishini yakdol asoslab bergan fandir. Bunday yondashuvni bir necha

asrlar ilgari sharq mutafakkirlari Forobiy va Abu Bakr ar-Roziylar ham o'z asarlarida e'tirof etganlar. Tasavvuf ham insonning ilm-ma'rifat asosida yuksalishi haqidagi ta'limotga tayanadi. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra insonning bosh maqsadini muhabbat, poklik tashkil qiladi. Olamga, borlikda bo'lgan muhabbat Xudo ishq sifati talqin qilinadi. Bunday muhabbat esa odamdan faqat yuqori darajadagi ko'ngli poklik va nafs ehtiyojlaridan ozod bo'lishni talab etadi.

Bu holat Xoja Axmad Yassaviy dunyoqarashini shakllantirgan ma'naviy ildizlardan birini tashkil qiladi. Chunki uning muhim va ibratli xususiyatlaridan biri - shaxsning o'z-o'ziga tanqidiy qaray olishi, o'ziga murosasizligi. Ahmad Yassaviyning nuqtai nazariga ko'ra ayyorlik, gunohlarni yashirish o'zgalarga xiyonat hisoblanadi. Bu fikrlari bilan Xoja Ahmad Yassaviy rostguylik, halollik, o'z-o'ziga talabchanlikni targ'ib qiladi. Insonni eng og'ir gunohlari uchun hatto tog'u toshlar ham la'natlaydi, - deydi Axmad Yassaviy.

Pedagogika fakulteti talabalariga "Pedagogika nazariyasi va tarixi", "Umumiy pedagogika asoslari", "Pedagogika tarixi", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" kabi pedagogik turkum fanlari o'qitiladi. Ushbu fanlarning har birida tasavvuf ta'limoti va uning inson kamolotidagi o'rni to'g'risida talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishning imkoniyatlari yetarli. Biz quyida maktabgacha ta'lim va sport yo'nalishi 3-kurs talabalari bilan "Ahmad Assaviyning ma'rifiy qarashlari" mavzusida o'tkazilgan dars ishlanmasini keltirdik.

Ahmad Yassaviy hayoti va faoliyati

Reja:

- 1. Yassaviy inson kamoloti va Vatan haqida.**
- 2. Yassaviy axloqlilik haqida.**
- 3. Yassaviy pedagogik qarashlarining ahamiyati.**

Ahmad Yassaviy turkiy tasavvuf she'riyatining atokli vakili. U «Devoni hikmat» asari bilan jahonning bir necha mamlakatlarida ma'lum va mashhur bo'lgan.

Yassaviyning tug'ilgan yili aniq ma'lum emas. Lekin ilmiy adabiyotlarda vafoti 1166-1167 deb ko'rsatiladi.

Yassaviy Sayramda tavallud topgan. Keyinchalik shoir tug'ilgan yerini «ul muborak Turkistondin» deb ta'riflagan. Otasi Shayx Ibrohimdan yetti yoshida yetim qolgan. Dastlabki tahsilni Yassida mashhur turk mashoyixi Arslonbobdan olgan. Arslonbob vafotidan so'ng, u tahsilni Buxoroda Yusuf Hamadoniy qo'lida davom ettirgan.

Yassaviy o'z asarlarida insonni ulug'langan, insonni ulug'likka chorlagan. Uning uqtirishicha, inson haqiqat qarshisida tik tura olishi, o'zligi qarshisida ham qomatini bukmasligi shart. Inson hayoti nechog'lik kulfat va mashaqqatlarga to'la bo'lmasin, u komillikka intilishi shart. Komillikka intilgan odam ko'p kulfatlarni boshdan kechiradi, turli alam va iztiroblarga duch keladi. Ammo undagi abadiyatga bo'lgan ishonch ana shu qiyinchiliklarda tug'iladi va u o'z murodiga erishadi. Yassaviy bu «haqiqatni daryosidin» deb ta'riflagan:

Haqiqatni daryosidin kechg'on kishi.

O'zi munlug', ko'ngli yetuk, ko'zda yoshi.

Xorliq, zorlik, mashaqqatdir doim ishi,

Diydorini talab qilib topar, do'stlar.

Yassaviy islom dinining yirik namoyondasi sifatida «tuproq»ni Allohning munavvar nuri, suv - uning yopyg' hayoti, havo — buyukligi, olov uning g'azabi timsoli hisoblaydi. Shu ma'noda tuproq - Vatan. Tuproq necha yuz yillardan buyon ulug' farzandlarini quchog'iga bosib kelayotgan mushfiq zamin. Shuning uchun biz uni e'zozlab ona Vatan deymiz. Bu Vatan o'tmishda yashagan ajdodlarimizga onalik qilgan. Vatan biz uchun va kelajak nasllar, avlodlar uchun xam Ona Vatandir. Yassaviy:

Boshim tufrog', uzim tufrog', jismim tufrog',

Haq vaslig'a yetarmen deb ruhim mushtoq.

— deb uzining Vatan diydoriga bo'lgan sog'inchini izhor etgan. Demak, inson Vatan bilan uyg'un. Shu tuyguga ega bo'lgan inson el-yurt ehtiromiga sazovordir.

Bunday insonni dunyo taniydi. Bunday qudratli zotlarni olam xam yengib, bosib o'tolmaydi.

Yassaviy uzining diniy-axloqiy qarashlarida yomonlik, nodonlik, jaholatlik, molparastlik illatlarni qoralaydi, «ko'ngli qattiq xaloyiqni» shafqatli bo'lishga, g'arib va yetim mazlumlarga ozor bermaslikka da'vat etadi. U deydi:

*G'ariblarni ko'rgan yerda og'ritmangiz,
G'ariblarga ochig'lanib so'z qotmangiz,
Zaif ko'rib g'apublapg'a tosh otmangiz,
Bu dunyoda g'aribliktek balo bo'lmas.*

Yassaviy inson hayotidagi katta kurashni — nafsni taslim etishga xizmat qiladigan kurash hisoblaydi. Nafsdan ustunlikka erishgan g'aribni shoh o'rnida ko'radi. Yassaviyning ta'limoticha, nafs - ichki, lekin juda katta dushman. Nafs insondagi butunlikni sindiradi. Uning amrlaridan ma'naviy osoyishtaliklar bardam topadi. Shu bois «nafsni tepib mehnat yetsa rohat» anglamog'i kerak. Demak, inson nafsni o'zidan yiroqlatib, mehnatga berilsa, bu uning uchun rohatdir. Inson mehnatni rohat deb anglamog'i kerak.

Yassaviy hikmatlarini diyonat ziyosi va iymon shafqati ichdan nurlantirib turadi. Alloh qahru g'azablaridan qo'rqmay odamlarga ranj yetkazib, ko'zlaridan yoshlar oqizuvchi bag'ritoshlarga u imonsizlar deb qaragan, odamlarni iymonli bo'lishga chorlagan. Yassaviyning fikricha, na musulmon, na kofirga, xech birovga ozor bermaslik kerak.

*Sunnat ermish, kofir bo'lsa, berma ozor,
Ko'ngli qammug' dilozordan xudo bezor.*

— deydi Yassaviy.

Yassaviyning hikmatlarida ifodalangan Vatan, inson kamoloti, iymon, diyonat, nafsga berilmaslik, rahm-shafqatlilik haqidagi axloqiy-falsafiy fikr-g'oyalar hozirgi yoshlar tarbiyasida ham qimmatli qadriyat bo'lib, ular milliy pedagogikamizga qo'shilgan katta hissadir.

MA'RUZA MASHG'ULOTLARI

Mavzu

Ahmad Yassaviy hayoti va faoliyati

1.1. Ma'ruzada ta'lim texnologiyasi

<i>Mashg'ulot vaqti-2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 38 nafargacha</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Kirish-axborotli ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	4. Yassaviy inson kamoloti va Vatan haqida. 5. Yassaviy axloqlilik haqida. 6. Yassaviy pedagogik qarashlarining ahamiyati.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Tasavvuf ta'limoti hamda Ahmad Yassaviyning ma'rifiy qarashlari to'g'risida tushunchalar berish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> • Tasavvuf ta'limotining paydo bo'lishi, unda komil inson tarbiyasining aks etish masalalari haqida ma'lumot berish; • Tasavvuf ta'limotining vakili Ahmad Yassaviyning hayoti va faoliyati, uning inson kamoloti va vatan haqidagi g'oyalarini tushuntirish va izohlash; • Ahmad Yassaviy ta'limotida igari surilgan ma'naviy fazilatlar tasnifi. • Yassaviy ta'limoti bo'yicha shaxs shaklanishining umumiy omillari.	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> • Tasavvuf ta'limotining paydo bo'lishi, unda komil inson tarbiyasining aks etish masalalari haqida ma'lumot beradi; • Tasavvuf ta'limotining vakili Ahmad Yassaviyning hayoti va faoliyati, uning inson kamoloti va vatan haqidagi g'oyalarini tushuntiradi va izohlaydi; • Ahmad Yassaviy ta'limotida igari surilgan ma'naviy fazilatlar tasniflaydi. • Yassaviy ta'limoti bo'yicha shaxs shaklanishining umumiy omillari ko'rsatiladi.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Suhbat, tushuntirish, savol-javob, namoyish etish, ko'rgazmali ma'ruza, interfaol usullar.
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, jamoaviy
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, kompyuter texnologiyalari, slaydlar
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob


1.2. "Ahmad Yassaviy hayoti va faoliyati" mavzusi bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi



<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>

1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1.O'quv kursi nomini aytadi. Ekranga o'quv kursining tuzilmaviy mantiqiy chizmasini chiqaradi, mavzular ro'yxati bilan tanishtiradi va ularning mazmunini qisqacha yoritadi. 1.2.Birinchi mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini e'lon qiladi.	Tinglaydilar. Tinglaydilar
2-bosqich Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida savol-javob usulini qo'llaydi: • “Tasavvuf deganda nimani tushunasiz” atamasi kim tomonidan va qachon fanga kiritilgan? • Markaziy Osiyoda tasavvuf ta'limotining paydo bo'lishi qaysi mutafakkir va mutasavvufning nomi bilan bog'liq? • Ahmad Yassaviy ta'limotining asosida nima yotadi? • Ahmad Yassaviyning qanday asarlarini bilasiz? 2.2. Javoblarni to'ldiradi, umumlashtiradi va bugungi o'quv mashg'ulotida ushbu savollarga kengroq javob olishlarini aytadi. 2.3. Ekranda slaydlar namoyish etish orkali tasavvuf ta'limotining barkamol insonni shakllantirishda tutgan o'rni haqida ma'lumotlarni beradi. Talabalar diqqatini mavzuning asosiy jihatlariga karatadi, ularning dolzarb va ahamiyatli ekanini asoslaydi.	Savolga javob beradilar. Fikrlarini bildiradilar. Tinglaydilar, zarur ma'lumotlarni yozib oladilar.
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalar qiladi. Mazkur mavzu buyicha egallangan bilimlarning dolzarbligi va ahamiyatli ekanini alohida qayd etadi hamda kelajakda ushbu bilimlardan qayerlarda foydalanishi mumkinligi haqida ma'lumot beradi. 3.2. Mustaqil ishlash uchun vazifa beradi va keyingi o'quv mashg'ulotlariga tayyorlanib kelish.	Savollar beradilar. Vazifani yozib oladilar.

1-ilova

<i>Ma'ruza rejası:</i> 1. Yassaviy inson kamoloti va Vatan haqida. 2. Yassaviy axloqlilik haqida. 3. Yassaviy pedagogik qarashlarining ahamiyati.
--





2.2. Auditoriyadan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda tasavvuf ta'limoti asosida talaba ma'naviyatini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari

Oliy maktabda ta'lim ishlarini tashkil etish pedagogika fanlari doktori, professor M.Ochilov va N.Ochilovalarning “Oliy maktab pedagogikasi” darsligida o'z ifodasini topgan⁵.

Darhaqiqat, oliy maktabda ta'lim ishlarini tashkil etishga tegishli me'yoriy talablar qo'yiladi. Bu talablar oliy o'quv yurtida o'quv-tarbiya ishlari O'zbekiston Respublikasida joriy etilgan oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

Tarbiyaviy ishlarni istiqbolli rejalashtirish

1. Oliy o'quv yurtida ta'lim-tarbiya ishlarini istiqbolli rejalashtirish tarbiyaning samaradorligini oshiravchi zarur shartlardan biridir. Uzoq muddatga mo'ljallab tuzilgan reja bo'lmasa, tuzukroq ishlab ham bo'lmaydi. Tarbiyaviy ishlar rejasining asosiy vazifasi ta'lim-tarbiya tadbirlarini ma'lum bir tizimga keltirish, aniq maqsadga yo'naltirish, tarbiya jarayonida izchillik, uzviylik va ketma-ketlikni ta'minlash, o'quv metodik ishlar, ilmiy tadqiqot va tarbiyaviy tadbirlar o'rtasidagi uzilishni bartaraf etish, talabalarni tarbiyalash sohasida ilg'or tajribalarni umumlashtirishdan iborat. Majmualari xarakterdagi istiqbolli reja talabalarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning aniq yo'l va vositalarini ko'rsatadi.

2. Oliy maktabda talaba-yoshlarni yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatli mutaxassislar qilib tarbiyalash dasturi va ta'limning barcha o'quv davriga mo'ljallangan tarbiyaviy ishlarning istiqbolli rejasini tuzish odatga aylandi. Ilmiy jihatdan asoslangan istiqbolli reja yoki dastur talabalarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash sohasidagi barcha ishlarning asosiy yo'nalishlarini birlashtiradi, fakultet, kafedra va jamoat tashkilotlarining bo'lajak mutaxassislarni barkamol shaxs qilib shakllantirish sohasidagi faoliyati uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

3. Istiqbolli reja yoki tarbiyaviy ishlar dasturini ta'limning barcha yillariga mo'ljallab tuzish maqsadga muvofiq. Istiqbolli rejalashtirish oliy maktabda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining butun hajmini, ko'lamini aniq tasavvur

⁵ M.Ochilov, N.Ochilova. Oliy maktab pedagogikasi. Darslik. –T.: “Aloqachi”, 2008, -304 b.

etishga, har bir kursda bajariladigan aniq vazifalarni belgilab olishga imkon beradi.

Oliy o'quv yurtida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishga ma'naviyat bo'limi rahbarlik qiladi. Bu vazifa ijtimoiy fan kafedralari, pedagogika va psixologiya kafedralari zimmasiga yuklanadi. Oliy o'quv yurtlarida ilmiy-metodik kengashlar ham, yoshlarni tarbiyalash masalasi bo'yicha tuzilgan komissiyalar ham bu ish bilan shug'ullanadi. Istiqbolli reja yoki dasturni tuzishda barkamol shaxsni tarbiyalash to'g'risida Prezident farmonlari va me'yoriy hujjatlardan kelib chiqadigan xulosalar asos qilib olinadi.

4. Tarbiyaviy ishlarning samarali bo'lishi va istiqbolli rejalashtirish uchun sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazib turish lozim. Sotsiologik tadqiqotlar talabalarning hayoti va faoliyatini o'rganishga, ularning ruhiy dunyosini, ehtiyojlari, qiziqishlari va ideallarini; talabalar hamda o'qituvchilarning vaqt budjetini, tarbiyaning ayrim yo'nalishlari, shakl va usullarining ta'sirchanligini aniqlashga imkon beradi. Masalan, biror kurs talabalarining vaqt budjetini oldindan o'rganmay turib, tarbiyaviy tadbirlarni to'g'ri belgilash qiyin. Chunki mo'ljallangan tadbirlar haddan tashqari ko'p yoki oz bo'lishi mumkin, natijada tarbiyaviy ishda uzviylik tamoyili buziladi. Bu, tarbiyaviy ta'sirlarning samaradorligini pasaytiradi.

5. Istiqbolli reja yoki dasturda ko'rsatilgan tarbiyaviy ishlar oliy maktabda o'quv jarayoni bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lishi zarur. Bu faqat ta'limning mazmuni tarbiyaviy xususiyatiga ega bo'lishidan iborat bo'lmay, shu bilan birga, o'qishdan tashqari vaqtda tarbiyaviy ta'sir o'tkazish shakllari va vositalari ham talabalarga shu davrda berilayotgan ta'limning xususiyatiga bog'liq bo'lishi lozim.

Istiqbolli rejalashtirishning samarali bo'lishi belgilangan ayrim tadbirlarning va umumiy rejaning bajarilishini nazorat qilib borishga ham bog'liq. Odatda, ma'naviyat bo'limi rejaning bajarilishi ustidan umumiy nazoratni olib boradi. Istiqbolli reja yoki dasturda faqat bajaruvchi va tashkilotchilarnigina emas, balki nazorat qilib boshqaruvchilarni ham aniq ko'rsatish maqsadga muvofiq. Chunki nazoratning izchil va ta'sirli bo'lishi rejani bajarishning muhim shartidir.

6. Oliy maktabda talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lajak mutaxassislarda **kasb odobini** shakllantirishdan iborat.

Bu tanlagan kasbiga muhabbatni o'stirish, kasb odobiga xos axloqiy tushunchalar, xulqiy normalarni hosil qilishni nazarda tutadi. Masalan, talabalar ongida pedagogik kasb odobini shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar, pedagogika va psixologiya hamda ixtisos fanlari kafedralari muhim rol o'ynaydi. Chunki o'qituvchi odobi pedagogika va psixologiyani, shuningdek, ixtisoslik fanlarini o'rganish natijasida, pedagogik kasbni bevosita amalda egallab olish tufayli shakllanadi.

Pedagogik kasblarni tanlagan talabalar birinchi semestr davomida «o'qituvchilik ixtisosiga kirish»ni o'rganadilar. Bu kursning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: pedagogik kasbning shaxsiy va ijtimoiy qimmati, ahamiyatini, bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan demokratik jamiyatda uning o'rni, vazifalari va xususiyatlarini ochib berish; o'qituvchini pedagogik faoliyatga tayyorlashning tizimi, mazmuni, shakl va metodlarini bayon etish; oliy o'quv yurtida ta'lim-tarbiya jarayonining tashkil etilishini, mustaqil ishlash metodikasini o'rganishdan iborat. «O'qituvchilik ixtisosiga kirish» kursini o'rganish pedagogik kasbning mohiyatini chuqur anglashga, mustaqil o'qish, ilmiy ishlar, jamoat ishlarida ongli ravishda va faol qatnashishga yordam beradi. Bu fanni o'rganish bo'lajak o'qituvchilarning faoliyati va tafakkurini professional-pedagogik yo'nalishda shakllantirishga, oliy maktabda ta'lim olish sharoitlariga ko'nikish hosil qilishlariga imkon beradi.

7. Ayrim oliy o'quv yurtlarida ikkinchi kursdan boshlab o'qituvchi odobini shakllantirishga yordam beradigan maxsus fanlar o'qitiladi. Masalan, «pedagogik etika» (o'qituvchi odobi)dan fakultativ mashg'ulotlar o'tkaziladi. Unda pedagogik kasbning axloqiy xarakteri, o'qituvchi odobining tushunchalari, norma va qoidalari bayon etiladi. Bu bo'lajak mutaxassislarni ma'naviy-axloqiy jihatdan mukammal shakllantirishga yordam beradi.

Talabalarda o'qituvchi odobini shakllantirish pedagogika va psixologiya hamda ixtisoslik fanlarini o'qitish jarayonida ham amalga oshiriladi. Bu fanlardan o'qitilayotgan mavzularning mazmuni bilan bog'liq ravishda talabalarning e'tibori kasbiy axloq-odob masalalariga jalb etiladi.

8. Istiqbolli rejalarning ba'zilarida oliy o'quv yurtini bitirib maktablarda, o'rta maxsus va kasb-hunar o'quv yurtlarida, korxonalarda ishlayotgan kishilar bilan uchrashuvlar, ularning professional malakasini oshirishga yordam beradigan boshqa tadbirlar ham mo'ljallanadi. Bu oily maktabni bitirib chiqqan kishilar bilan muntazam aloqa o'rnatish maqsadiga xizmat qiladi. Bu ish alohida diqqatga sazovordir. Chunki u mutaxassislar tayyorlash sohasida amalga oshirilgan barcha ishlar natijasining samaradorligini aniqlashga, xususan universitetni tamomlab chiqqan yosh o'qituvchilarning axloqiy sifatlari maktablar va xalq ta'limi idoralarining shu kundagi talablariga qay darajada mos kelishini aniqlashga yordam beradi. Oliy o'quv yurtini bitirib chiqqan kishilar faoliyatiga doir axborotlar oliy o'quv yurtida ta'lim-tarbiya jarayoniga ayrim o'zgarishlar, tuzatishlar kiritishga ham imkon beradi.

9. Talabalarni tarbiyalash sohasidagi ishlarning samarali bo'lishi uchun professor-o'qituvchilar, ishchi va xizmatchilarni ham mustaqillik g'oyalari, milliy ma'naviyatli qilib tarbiyalab borishni jiddiy rejalashtirish zarur. Ayrim oily o'quv yurtlari talabalarni tarbiyalashning majmuali rejasi bilan bir qatorda oliy o'quv yurtining xodimlari bilan o'tkaziladigan tarbiyaviy ishlarning istiqbolli rejasini ham tuzib, uni amalga oshiradilar. Bu rejalarda oliy o'quv yurtining barcha xodimlarini ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga doir tadbirlar nazarda tutiladi.

Talabalarni auditoriyadan tashqari tarbiyaviy tadbirlar orqali tarbiyalash hozirgi kunning asosiy vazifalaridan biri. Ayniqsa, Ahmad Yassaviy merosi asosida talaba ma'naviyatini shakllantirish dolzarb tarbiyaviy tadbirlardan biri. Biz quyida talabalarni Ahmad Yassaviy tug'ilib o'sgan joy hozirgi Qozog'iston Respublikasining Yassi (Turkiston) shahriga qilingan sayohatning ishlanmasini keltiramiz.

Ahmad Yassaviy tug'ilgan joy Turkistonga sayohat

Maqsad: Talabalarga tasavvuf ta'limotining namoyondalaridan biri Ahmad Yassaviy tug'ilgan joy, uning barkamol shaxsni shakllantirishga oid qarashlari,

Ahmad Yassaviy maqbarasi, uning qurilishi bilan bog'liq jarayonlar, Yassaviyning ma'rifiy g'oyalaridan ta'lim tizimida foydalanish to'g'risida tushuncha berish.

Ekskursiyaga pedagogika-psixologiya yo'nalishidagi talabalar olib borilishi mumkin.

Ekskursiya maqsadi:

1. Turkiston shahridagi Ahmad Yassaviy maqbarasi to'g'risida suhbat.
2. Ekskursiya boshlovchisi tushuntirish – ko'rsatmasi bilan Turkiston shahridagi Ahmad Yassaviy maqbarasining muhim joylarni tamosha qilish.
3. Ekskursiya bo'yicha savol – javob o'tkazish.
4. Ekskursiya bo'yicha albom tayyorlash, hamda natijalarni tahlil qilish.

Ekskursiyaga borgan talabalarga quyidagilarni yetkazdik:

Ahmad Yassaviy (Yassi) Turkiston shahrida tug'ilgan. U tasavvufning mashhur namoyondalaridan biri. Ahmad Yassaviy Buxoroda tasavvuf bobida Yusuf Hamadoniylardan ta'lim olgan, Turkistonga qaytib kelgach shayx, pir sifatida ham o'zbek adabiyoti tarixida tarkidunyochilik, islom va uning qonun-qoidalarini, aziz-avliyolarga e'tiqodni targ'ib qiluvchi g'oyaarni ilgari surgan inson sifatida hurmat qozongan. Uning asarlari "Devoni hikmat" nomi bilan mashhur. Bu hikmatlarda insonparvarlik, pokizalik, yetim-yesirning haqini yemaslik, mehnatsevarlik, nafsni tiyish kabi insoniy fazilatlar o'z ifodasini topgan. Turkiston shahrida Ahmad Yassaviyga bag'ishlab sohibqiron Amir Temur tomonidan maqbara qurdiradi. Amir Temur Oltin O'rdaga qarshi urishlar davrida Ahmad Yassaviy qabrini ziyorat qilishga boradi. Shunda sohibqiron uning qabri ustiga muhtasham maqbara qurishga buyruq beradi va katta mablag' ajratadi. Ahmad Yassaviy maqbarasi hashamdor va ulug'vor ($65,5 \times 46,5$ m). Maqbara markaziy o'q chizig'iga nisbatan simmetrik yo'laklar vositasida 8 ga bo'linadi. Ularning har biri bir yoki bir necha xonadan iborat. Binoning markaziy qismida qozonli ("Nazr niyoz" qozoni) xona joylashgan. Uning yuqori qismida Ahmad Yassaviyning qabri ustiga qo'yilgan ziyoratxona bor. Ularning ikki tomonida kitobxona, masjid, oshxona va quduqxona mavjud. Xonalarning ba'zilari shayxar va ziyoratchilarga xizmat qilgan. Ular o'z mavqeyiga qarab turlicha bezatilgan. Muqarnas, koshinkorlik, turli o'ymakorlik bezaklari

qo'llanilgan. Ahmad Yassaviy maqbarasi 1951-1957 – yillarda har tomonlama o'rganildi va uni holiga keltirish uchun chora-tadbirlar belgilandi. Hozirgi kunda bu muqaddas joy ziyoratchilarning sevimli maskaniga aylangan.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar:

1. Ahmad Yassaviy maqbarasi qayerda joylashgan?
2. Ahmad Yassaviy maqbarasi kim tomonidan bunyod etilgan?
3. Ahmad Yassaviy maqbarasidagi yetti xil materialdan tayyorlangan qozon to'g'risida nimalarni bilasiz?
4. Lug'atlardan pir, shayx, tasavvuf so'zlarining ma'nosini topib o'rganing.

Adabiyotlar ro'yxati

1. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma'naviyat”, 2008y.
2. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. - T.: “O'qituvchi”, 2001. –296 b.
3. A.Zunnunov. Pedagogika tarixi. T.: O'qituvchi, 2002, -204 b.

Ahmad Yassaviy qalamiga mansub bo'lgan «Devoni hikmat», «Rasoyil», «Faqrshoma», «Go'daknoma» asarlaridagi nasihatlar shogirdlaru barcha xaloyiqda tez yetib borgan va ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Ahmad Yassaviy insonlarga munosib halol va adolatli yashash yo'llarini o'rgatadi. Oriflar xalq hayotiga doir barcha dolzarb muhim muammolarga aniq munosabatini bildiradi. Yassaviy ijodidagi bosh masala - halollik, nafsni tiyish, yomon ishlardan uzoq yurishdir. Uning ijodi ko'p qirraliligi sababli inson uchun zarur bo'lgan barcha sifatlarga munosabat bildiriladi. Shu bois o'quvchilar bilan sinfdan tashqari vaqtda o'tkaziladigan tarbiyaviy ishlar uchun Ahmad Yassaviy ijodidan quyidagi mavzularni tavsiya etamiz:

1. Ahmad Yassaviy kim?
2. Yassaviy - ma'rifatparvar.
3. Tan so'zlamas, jon so'zlamas, imon so'zlar.
4. Nafs yo'liga kirgan kishi rasvo bo'lur.
5. Ilm kuchi.
6. Gunohni anglash.
7. Nodonlik - aql jallodi.
8. Mehr.

9. Ona-Vatan tuprog'ida sabr, umid, muruvvat bor.

Keltirilgan mavzular Ahmad Yassaviy ijodini qamrab olgan bo'lib, uning hikmatlarida o'z aksini topdi.

Bo'lajak pedagoglarga Ahmad Yassaviy merosini qamrab olgan, uni hikmatlari haqida tarbirlar ssenariylarini tuzishni o'rgatish va ana ssenariylar asosida kelajakda o'zlari faoliyat ko'rsatayotgan ilm dargohlarida o'quvchilarga Ahmad Yassaviyning hikmatlari asosida tadbirlar tayyorlab unda o'quvchilarni halollik, nafsni tiyish, yomon ishlardan uzoq yurish kabi fazilatlarni shakllantirishlari uchun yana bir tadbir "Bobolardan bolalarga" tadbirining ssenariysini keltiramiz. Ushbu tadbir ssenariysi Ahmad Yassaviyning ma'rifiy qarashlarini o'rgangan pedagog olimasi Hajjiyeva Maqsuda Sultonovaning ilmiy ishidan foydalandik.

«Bobolardan bolalarga» ertaligi ssenariysi

Ertalikning maqsadi: o'quvchilarni Ahmad Yassaviy ijodi bilan tanishtirish.

Ertalikning borishi

Boshlovchi: bolalar va mehmonlar bilan salomlashadi va bizning «Bobolardan bolalarga!» deb nomlangan ertaligimizga, xush kelibsizlar! -deydi. O'qituvchi kirish suhbatida: Ahmad Yassaviy xalkimizning buyuk mutafakkiridir. U Turkistonning Sayram tumanida shayx Ibrohim oilasida tug'iladi. Ota-onasi dindor, taqvodor kishilar bo'lgani uchun ham u diniy ruxda tarbiyalanadi. Ilk tahsilni turk mashoyixi Arslonbobdan oladi. Ustozi vafot etgach, Buxoroda ta'limni davom ettiradi va o'sha davrdan boshlab insonlarni yaxshilikka chorlovchi hikmatlar yoza boshlaydi. Bugun biz uning pand-nasixhatlaridan va qilgan hikmatlaridan namunalar keltiramiz. Ular Yassaviy bobomizning eng katta asari «Devoni hikmat»da berilgan. O'ylaymizki, ular sizdarga ma'qul bo'ladi.

O'quvchilar: Ozoda, Barno. Rustamlar Ahmad Yassaviypish o'zlariga yoqqan hikmatlaridan aytib beradilar va har bir hikmatning mazmunini tushuntirishga harakat qiladilar.

Boshlovchi: Raxmat, bu hikmatlarning mazmunini to'g'ri aytdingizlar hamda hikmatlarni o'qish uslubiga e'tibor qildingizlar. Demak, Ahmad Yassaviy doimo

kambag'al va yetim-yesirlarning boshlarini silashga intilgan. U kishida insonparvarlik fazilati doimo ustunlik qilgan. Raxmat.

O'quvchi- Rustam: *Totlik-totlik yeganlar,
Turlik-turlik kiyganlar.
Oltin taxt o'lturganlar,
Tuproq ostida qolmishlar.*

Bu hikmatda boylikning o'tkinchiligi haqida so'z bormoqda, deya so'zini yakunlaydi.

Boshlovchi: Rahmat o'quvchilar, Ahmad Yassaviy hikmatlarini kim ko'p biladi, qani bellashaylik. G'olib tomonga mukofot belgilangan. Tayyormisizlar? Qani, kim boshlab beradi?

Shunday qilib, o'quvchilar hikmatlaridan aytishadi, ko'p aytgan tomon «g'olib» hisoblanadi.

Boshlovchi: Rahmat bolalar! Sizlarni Ahmad Yassaviy bobomizning ruhi qo'llasin! - deb har ikkala tomonga xam Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat» asarini hadya qilishadi. Nihoyat, boshlovchi mehmonlarga nisbatan murojaat qilgan holda ertalikka yakun yasab:

Hurmatli mexmonlar! Mana, o'quvchilarimizning ajdodlarimiz merosidan qanchalik xabardor ekanliklarining guvoh bo'ldik. Bizningcha, ularning bolalikdan Ahmad Yassaviy hikmatlarini o'rganishlari yaxshilik tomon qo'yilgan qadam bo'ladi. Chunki bobomiz yoshlarni o'ylab, qalam tebratganliklarini yuqorida o'quvchilar o'qib, izohlab bergan hikmatlarda ko'rdik. Demak, bugungi tadbirlardan ularning ruhi quvondi.

2.3. Talabalarda tasavvuf ta'limoti asosida ma'naviy tushunchalarni shakllantirishga oid tajriba-sinov ishlarining natijalari va samaradorligi

Tasavvuf uzoq asrlar davomida xalqimiz ma'naviyatini boyitishga xizmat qilib kelgan. Insonning ruhiy-axloqiy poklanishi, ilohiy muhabbat bilan yuksalib borish bu ta'limotning asosiy g'oyalari. Shu bois tasavvuf chuqur insonparvarlik g'oyalari bilan omuxta bo'lib, haqiqat talabida yurgan odamlar qayta yo'l topdi, odamlarning poklik, abadiy hayot ko'ngil hurmati haqidagi orzularini ifodalab keldi.

Barkamol insonni tarbiyalash masalasining ijobiy hal etilishida o'zining hayotiy ilg'or g'oyalari bilan asrlar davomida munosib hissasini qo'shib kelayotgan tasavvuf ilmining bunyodkor g'oyalari muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun tasavvuf ilmi g'oyalariidan ta'lim –tarbiya jarayonida samarai foydalanish oliy ta'lim oldida turgan dolzarb vazifalardan bo'lmog'i lozim.

Tasavvuf ta'limotining g'oyalarini oliy ta'lim tizimining maktabgacha ta'lim va sport yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar bilan tajriba –sinov ishlarini o'tkazdik. Bu jarayonni amalga oshirishda talabalar bilan uchrashuvlar, suhbatlar, test sinovlari, so'rovnomalar orqali talabalarning bu boradagi bilim, malaka va ko'nikmalari sinovdan o'tkazildi.

Tajriba-sinov ishlari maxsus tuzilgan dastur asosida bosqichma –bosqich olib borildi. Ko'pab tarqatmali va ko'rgazmali materiallar ishlab chiqildi, tahrir qilindi, ko'paytirildi va talabalarga tarqatildi. So'rovnomalarga quyidagi savollar kiritilgan edi:

1. Pedagogika fakulteti maktabgacha ta'lim va bolalar sporti yo'nalishida tahsil olayotgan 3-kurs talabalariga Ahmad Yassaviy to'g'risidagi bilimlarini o'rganish yuzasidan test savollari (1-ilova)

2. Pedagogika fakulteti maktabgacha ta'lim va sport yo'nalishida tahsil olayotgan 2-kurs talabalariga Najmiddin Kubro to'g'risidagi tushunchalarni o'rganish yuzasidan berilgan test savollari (2-ilova)

3. Pedagogika fakulteti maktabgacha ta'lim va sport yo'nalishi 4-kurs talabalariga Bahouddin Naqshbandiy ta'limotini o'rganish yuzasidan test savollari (3-ilova).

4. Alisher Navoiy nomidagi SamDU pedagogika faklteti talabalariga tasavvuf ta'limotini o'rganish yuzasidan so'rovnoma.(4-ilova)

Tajriba-sinov ishlariniolib borishda pedagogika fakutetidagi o'quv-tarbiyaviy jarayon kuzatildi, talabalarning hujjatlari, auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning ilmiy-metodik ta'minoti, oliy ta'limning ish yuritgan hujjatlari bilan yaqindan tanishildi, dars jarayonlari kuzatildi, tahlil qilindi. Sinov mashg'ulotlari o'tkazildi, suhbatlar, uchrashuvlar o'tkazildi, sinov mashg'ulotlarining ishlanmalari tayyorlandi.

Tasavvuf ta'limotini pedagogika fakulteti talabalariga 123 va tasavvufning insonpavarlik g'oyalaridan talabalar ma'naviyatini shakllantirishda foydalanishni aniqlash uchun 1,2,3,4 so'rovnomalar bir-birini to'ldiradigan qilib tuzildi. 1-ilovada 10 ta test savollari, 2-ilovada ham test savollari, 3-ilovada 8 ta test savollari, 4-ilovada 6 ta savol tuzildi hamda turli guruh talabalariga tarqatildi.

1-ilovadagi talabaarning o'nta test savollarini tuzishda "Bahouddin Naqshbandiy tug'ilgan "Qasri Hinduvon " qishlog'i hozir nima deb ataladi,"Hayotnoma" va "Dalil al oshiqin", "Naqshbandiya" tariqati qayerlarda keng tarqalgan?,"Naqshbandiya tariqatining asosida nima yotadi?"

"Ko'ngil Allohda bo'lsin-u qo'l ish bilan band bo'lsin,buyuk alloma va aziz avliyolarimiz orasida Abdulloh G'ijduvoni va Bahouddin Naqshbandiyni muborak siymosi ajralib turadi,"-degan so'zlarini davlatimiz rahbari qaysi asarida aytgan?"

"Mustaqillik yillarida Bahouddin Naqshbandiyni necha yillik yubileyi nishonlandi, Bahouddin Naqshbandiy yoshligidan qaysi hunarni egallagan?" kabi savollar kiritildi. Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, biz suhbatlashgan va test savollarini tarqatib, javoblari olingan talabalarning ko'pchiligi tasavvuf ta'limotining vakillaridan biri Bahouddin Naqshbandiy bilan bog'liq javoblari umumiy holatda bilishi, berilgan test savollariga to'g'ri, to'liq javob berishning imkoniyatlari bo'lmadi. Masalan, Bahouddin Naqshbandiy tug'ilgan "Qasri Hinduvon" qishloi hozir nima deb ataladi degan savolga aksariyat talabalar "Qasri

Buxoro” deb javob berishdi. Vaholanki, “Qasri Orifon” degan to’g’ri javob berilishi lozim edi.

2-ilovada keltirilgan tasavvuf ta’limotining yana bir vakili Najmiddin Kubro to’g’risidagi tushunchalarni o’rganish bo’yicha o’nta test savoli va qirqta test javoblari kiritildi. Aniqrog’i quyidagi savollar kiritildi: ”Najmiddin Kubro qayerda tug’ilib o’sgan?”, Najmiddin Kubro ta’limotining asosiy g’oyasi nimada?, “Ahmad Yassaviy tariqatidan Kubraviya tariqatining farqi nimada?”, ”Najmiddin so’zining ma’nosini bilasizmi?”, “Kubro so’zining ma’nosi to’g’ri ko’rsatilgan javobni belgilang ”, “Najmiddin Kubroning 850 yillik yubileyi respublikamizda qachon nishonlandi?”, “Xalqaro Islom Konfresiyasi tashkilotining ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo’yicha tuzilmasi-AYSESKO tomonidan respublikamizdagi qaysi shahar Islom madaniyatining iarkazi deb e’lon qilindi?”, “Najmiddin Kubro tarixda qanday nom qoldirgan?”, “So’ngi yillarda O’zbekistonda tasavvuf ta’limotining o’rganishga qiziqishning kuchayib borishining sababi nimada” kabi test savolari talabalarga tarqatildi. Test savollarida keltirilgan “Najmiddin Kubro ta’imotining asosiy g’oyasi nimada?” savoliga talabalar “poklikni, mehnatsevarlikni targ’ib qilgan”, “tarkidunyochilikni targ’ib qilgan” kabi noto’g’ri javoblarni belgilashgan. Bu holat talabalarning tasavvuf ta’limotining vakillaridan biri Najmiddin Kubro to’g’risida alohida mavzular ajratilmaganligini ko’rsatdi. Biz maktabgacha ta’lim va bolalar sporti yo’nalishi o’quv rejasida ko’rsatilgan “Pedagogika nazariyasi vav tarixi”, “Ijtimoiy pedagogika va oila pedagogikasi”, “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi”, “Tanlov fanlar”ning yillik, yarim yillik mavzulari tahlil qilinganida bor-yo’g’i 2-3 ta mavzu o’tilganligi ma’lum bo’ldi. Bu hol talabalarga tasavvuf ta’limoti to’g’risida tasavvurlar bera olmasligini ko’rsatdi

Savolnomalardagi 7,9,10 –savollarga boshqa savollarga nisbatan ijobiy javoblar olindi. Jumladan, 7-savoldagi “Xalqaro Islom Konfrensiyasi Tashkiotining ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo’yicha tuzilmasi –AYSESKO tomonidan respublikamizdagi qaysi shahar Isom madaniyatining poytaxti deb e’lon qilindi?”,- degan savolga nazorat guruhlarida dastabki o’tkazishda 38 nafar talabadan 9 ta talaba ijobiy, 17 nafar talaba noaniq, 12 nafar talaba “qoniqarsiz” javob bergan

bo'lsa, tajriba-sinov guruhlarida ushbu o'tkazishda 30 nafar talabadan 16 nafari ijobiy, 9 nafari noaniq, 5 nafari "qoniqarsiz" javob berdi. Nazorat guruharida ijobiy javob bergan 16 nafar talaba tasavvuf to'g'risidagi ma'lumotlarni boshqa manbalardan teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlardan, guruh rahbarining ma'naviyat soatlardagi suhbatlaridan, ota-onalaridan mustaqil o'rganib olishgan.

Tajriba-sinov guruhlarida esa dastlabki o'tkazishda 16 nafar o'quvchining ijobiy javob berishiga sabab pedagogika darslarining, mustaqil ish mavzularini bajarishga, ma'naviyat soatlarida tasavvuf ta'limoti va uning vakillari to'g'risida ma'lumotlar kiritilgan edi.

Tadqiqotimizni olib borish jarayonida tasavvuf ta'limoti asosida talaba ma'naviyatini shakllantirish uchun quyidagi didaktik vositalarning imkoniyatlaridan foydalanishni tavsiya etdik:

1. Pedagogik tukum fanlarning mavzularini qat'iy har bir kursda 1-2 paradan tasavvuf ta'limotining g'oyalarini tizimlashtirgan holda;

2. Pedagogika darslarining asosiy qism yillik o'quv rejasi mavzularini Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshbandiy asarlari asosida tuzib olish;

3. Ma'naviyat soatlarida tasavvuf ta'limotining g'oyalaridan foydalanish;

4. Auditoriyadan tashqari ishlar yillik rejasida tasavvuf ta'limotiga bag'ishlangan kechalar, tasavvufshunos olimlar bilan suhbatlar, uchrashuvlar, mushoiralar, sayohatlar va boshqa tadbirlarning mavzularini ko'rsatish;

5. Mahalla – jamoatchilik tomonidan tasavvufga bag'ishlab o'tkaziladigan tadbirarda ishtirok etish rejasini ishlab chiqish.

Bo'lajak pedagoglar bilan olib borgan suhbat va so'rovnomalarimiz, test natijalari ularda tasavvuf ta'limotiga, jumladan Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband hikmatlarini vatanga, yurtga, insonga bo'lgan mehr-muhabbatini, mehnatsevarlik kabi xislatlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish katta ekanligini ko'rsatdi. Ishlab chiqilgan tadqiqot natijalari asosida tasavvuf ta'limoti vakillariga bag'ishlab bir qator tadbirlar ishlab chiqildi va o'tkazildi. O'tkazilgan tadbirlar talabalarda katta qiziqish uyg'otdi. Bu esa ta'lim tarbiyaviy ishlar samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2-kurs maktabgacha ta'lim va bolalar sporti guruhi talabalari bilan "Ahmad Yassaviyning hayoti va ijodi" mavzusida bir paraga mo'ljallangan tarbiyaviy tadbir o'tkazildi. Ushbu tarbiyaviy tadbirning maqsadi talabalarni Ahmad Yassaviyning hayoti va ijodi bilan tanishtirish sifatida belgilab olindi.

Tadbir turi: Yangi pedagogik texnologiya bo'yicha erkin uslubdagi ijodiy dars.

Asosiy qism. O'qituvchi tomonidan ma'ruza uslubida Ahmad Yassaviyning hayoti va ijodini bayon qilish. Talabalarning savollariga javoblar.

Tadbir yakuni. O'qituvchi tomonidan Ahmad Yassaviy hayoti va ijodi haqida o'zlashtirilmagan tushunchalar ba'zi bir noaniqliklarga aniqlik kiritish, tushunish qiyin bo'lgan so'zlarda izoh bo'lish.

Talabalarga Ahmad Yassaviyning hikmatlaridan namunalar yod olish tushuniladi.

Tadbirning ikkinchi qismi. Bu jarayonda asosiy e'tibor Ahmad Yassaviy hikmatlarining mazmuni bilan tanishtirish.

Tadbirning maqsadi:

- ba'zi asarlar matni ustida ishlash;
- umumiy va yakka suhbat o'tkazish;
- mavzu va suhbatga yakun yasash va topshiriq berish;
- talabalar bilimini baholash.

Bu jarayonni amalga oshirishda oldingi o'tilgan mavzu takrorlandi, talabalarning faolligini oshirish uchun bazan savol-javoblardan tashqari tarqatma-didaktik materiallardan ham o'rinli foydalanildi. Jumladan, 4 nafar talabaga quyidagi materiallar tarqatildi:

1-talabaga:

Beshak biling, bu dunyo barcha eldan o'taro,

Inonmagil molingga, bir kun qo'ldan ketaro.

Ota-ona qarindosh, qayon ketdi fikr qil,

To'rt oyog'lig' cho'bin ot, bir kun senga yetaro.

Hikmatning davomini yod ayting.

2-talabaga: Ushbu baytlarning mazmunini tushuntirib bering.

Sunnatlarni mahkam tutib ummat bo'lg'il,

Kecha-kunduz durud aytib ulfat bo'lg'il.

Nafsni tefib mehnat yetsa rohat bo'lg'il.

Andoq oshiq ikki ko'zi chiryon erur.

3-talabaga: Berilgan hikmatning mazmunini tushuntirib bering, undagi asosiy fikrni aniqlab bering.

Ibrat olg'il yo'lga kirgin mardonlardan,

Jonni jong'a payvand qilib yurg'onlardan.

Yo'lni so'rab yo'ldin yomon borg'onlardan,

Andog' qullar halok benob, xarob etti.

4-talaba:

Dunyo uchun g'am yema, Haqdan o'zgani dema,

Kishi molini yema, sirot uzra tutaro.

Ahli ayol, qarindosh, hyech kim bo'lmaydir yo'ldosh,

Mardona bo'l g'arib bosh, umring yeldek o'taro.

Ushbu hikmatning mazmunini tushuntirib bering. Siz ushbu hikmatdan qanday tarbiyaviy ma'no oldingiz?

O'qituvchi tarbiyaviy tadbirning vaqtini ko'zlab, 6 nafar talaba mustaqil ish bilan band etadi, so'ngra o'rtaga quyidagi manzarali savollarni tashlaydi, o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat o'tkazadi.

1. Ahmad Yassaviyning hayot yo'l to'g'risida so'zlab bering.
2. Ahmad Yassaviy qanday asarlar yozgan? Ularda qanday ma'nolar ifodalangan?
3. "Go'daknoma" risolasining mazmuni haqida so'zlab bering.
4. Ahmad Yassaviy hikmatlaridan namunalar aytib bering.
5. "Faqirnoma" risolasining mazmunini gapirib bering.

O'qituvchi adabiy tarqatmalar bo'yicha bajarilgan savollar va ulardan olingan 6 nafar talabaning mustaqil ishlar natijalarini o'qitib tekshiradi. O'qituvchi mavzuga yakun yasash maqsadida Ahmad Yassaviy hikmatlarining asosiy mazmuni haqida

yana bir marta qisqacha to'xtalib o'tadi. Tarbiyaviy tadbirga yakun yasaydi, talabalarning javoblarini baholaydi va topshiriq sifatida Ahmad Yassaviy hayoti va ijodi haqida tushunchalarga ega bo'lib kelishni tavsiya qiladi.

Ahmad Yassaviy hikmatlaridan foydalanish yuzasidan quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

✓ “Umumiy pedagogika”, “Pedagogika nazariyasi va tarixi”, “Pedagogika tarixi”, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” darslarida inson va uning jismi haqida Ahmad Yassaviy hikmatlaridano'quv materialli sifatida foydalanish mumkin.

✓ Ahmad Yassaviy hayoti va ijodi haqidagi dastlabki ma'lumotlarni, uning g'arib, bechora, yetim-yesir kishilarga mehribon bo'lish, ularning ko'nglini qoldirmaslik to'g'risidagi hikmatlarni pedagogik turkum fanlaridan olgan bilimlarini auditoriyadan tashqari tadbirlarda mustahkamlash uchun kiritish mumkin.

G'ariblarni ko'rgan yerda og'ritmangiz,

G'ariblariga achchig'lanib so'z qotmang.

Zaif ko'rib, g'aribarga tosh otmangiz,

Bu dunyoda g'ariblardek bao bo'lmas.

yoki

Qayda ko'rsang ko'ngli siniq maham bo'lg'il,

Andoq ma'lum yo'lda qolsa hamdam bo'lg'il.

Shuningdek, Ahmad Yassaviyning mehnatsevarlik, mehnatdan qochmaslikka chorlovchi, mehnatning inson hayotida tutgan o'rnini ochib beruvchi hikmatlardan ham foydalansa bo'ladi:

Banda bo'lsang, mehnat tortgil, g'ofil odam,

Oqil ersang, g'animatdur senga shul dam.

Amonatdur aziz joning yurma beg'am

Eshitib, o'qub yerga kirdi qul Xoja Ahmad.

Ahmad Yassaviyning yaxshilik qilish, insofli, diyonatli bo'lish kabi fazilatlar insonni kamolga yetkazuvchi ekanligi haqidagi hikmatlardan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir.

Hamisha yaxshilik qilg'il, ketarsan o'tib dunyodan,

Qiyomat obi ro'yiga kerak jigar qilsang.

Bundan tashqari talabalarning darslarda olgan bilim va malakalarini auditoriyadan tashqari tadbirlarda mustahkamlash uchun esa Ahmad Yassaviyning nafsni tiymoq, o'z-o'zini idora qilib, yaxshi fazilatlarni kamol toptirish haqidagi hikmatlardan foydalanish mumkin. Bu hikmatlarda molparastlikka, shonu-shuhratga uchramaydigan kishilargina o'z vatanini sevishi, uning qadriga yetish uqtiriladi.

*Nafs yo'ig'a kirgan kishi rasvo bo'lur,
Yo'ldan ozib, toyib, to'zib, gumroh bo'lur.
Yotsa qo'ysa shayton bilan hamroh bo'lur,
Nafsni tiygil, nafsni tiygil, ey badkirdor.
Nafsing seni oxir damda gado qilg'ay,
Oqil ersang nafsni baddin do'gil bezor.
Nafsim meni yo'ldan urib xor ayladi,
Termultirib xaloyiqqa zor ayladi.
Zikr aytirmay shayton birla yor ayadi,
Hozir – sen deb boshini sochdim ma'no.*

Pedagogik turkum fanarida olgan bilimlarini auditoriyadan tashqari tadbirlarda mustahkamlash uchun esa Ahmad Yassaviyning quyidagi hikmatlaridan foydalanish mumkin:

*Boshim tuproq, o'zim tuproq, jismim tuproq,
Haq vasliga yetarman deb ruhim mushtoq.
yoki
Molu pulni parvo qimas oshiq kishi,
Yo'l ustida tuproq bo'lib aziz boshi
Andin so'ngra nurga to'lar ichi toshi
Tongla borsa mahshar aro podshoh qildim.*

Ahmad Yassaviyning hayoti va ijodini o'rganish maqsadida u yashagan, ijod etgan tarixiy muhit bilan talabalarni tanishtirish uchun uning “Devoni Hikmat”, “Risoiya”, “Go'daknoma” “Faqirnoma” asarlaridagi o'git-nasihatlar va hikoyalarning mazmunlariga katta e'tibor qaratganlar. So'ngra Ahmad Yassaviyning maqbarasi

haqida fikr yuritib, uning Amir Temir tomonidan qayta ta'mirlanganiga e'tibor qaratib bu joy tabarruk ziyoratgohga aylanganligini gapiradi. O'qituvchi Ahmad Yassaviyning hayoti, ijodi haqida gapirganda uning ota-onasi, oilasi haqida ma'lumotlar berib uning ilm izlab Buxoro, Turkiston va boshqa shaharlarda chekkan azob-uqubatlari, ustoz va shogirdlari to'g'risida ma'lumot beradi.

Biz 2-kurs talabalari bilan Ahmad Yassaviyga bag'ishlab davra suhbatini o'tkazdik.

Ahmad Yassaviy haqida so'z borganda avvalo uning hikmatlaridan bir ikkitasini yoddan aytib berish kerak. So'ngra suhbatni Ahmad Yassaviyning hayoti va ijodidan lavhalar lozim.

Ikkinchidan, agar o'qituvchi biror-bir sabab bilan suhbatga ba'zi talabalarda ishtiyoq tug'dira olmayotganligini sezsa, shu daqiqada Ahmad Yassaviy "Tasavvuf" ilmning tashkilotchisi ekanligini uning ishq to'g'risida ma'lumotlar bilan "Haqni sevish Allohni sevish demak", - degan iborasini keltirsa, tinglovchining qiziqishi yanada ortadi.

Uchinchidan, suhbatda Ahmad Yassaviyning axloq-odobga va ma'naviy tarbiyaga qaratilgan hikmatlaridan namunalar keltirish tavsiya etiladi.

To'rtinchidan, talabalar fikr-mulohazalaridan keyin o'qituvchi Ahmad Yassaviy haqida yorqin lavhalar keltirgan holda xulosa yasaydi. Xulosaviy fikrlarni yoshlarning kelgusi hamda mustaqil O'zbekiston ravnaqi va nihoyat komil inson tushunchasiga aniqliklar kiritib uning hikmati bilan tugatadi:

*Qul Xoja Ahmad har so'zini dardga darmon,
Toliblarga ban qilsam qolmas armon.
To'rt ming to'rt yuz hikmat aytdim haqdin farmon,
Farmon bo'lsa o'lguncha so'zlasam men.
yoki
Eronlardan fayzu futuh ololmadim,
Yuz yigirma beshga kirdim, bilolmadim.
Haq taolo toatlarini qilolmadim,
Eshitib, o'qub yerga kirdi qul Xoja Ahmad.*

Tadqiqotimizni olib borish davomida yuqorida keltirigan tajriba-sinov materiallari, so'rovnomalar, suhbat varaqalari, test savollari va uarga berilgan javoblar tahlilini umumlashtirib, tajriba-sinovda qatnashgan o'quvchilarning berilgan savollarni va ular orqali qo'yilgan muammolarni o'zlashtirish darajalarini aniqladik. Ushbu o'zlashtirish darajalarini belgilashda uch darajaga ajratdik, ya'ni "yuqori", "o'rta", "quyi" deb baholadik.

Tasavvuf ta'limoti asosida talabalar ma'naviyatini shakllantirish darajasi bo'yicha guruhlariga bo'lindi:

1-shakl

Daraja	Nazorat guruhlari talabalarining o'zlashtirish tarkibi		Tajriba-sinovdan so'ng nazorat guruhlari talabalarining o'zlashtirishi	
	Talabalar soni	% hisobida	Talabalar soni	% hisobida
Yuqori	70	22	100	33,3
O'rta	81	27,1	160	54,6
Quyi	151	51,8	26	9,8

Tasavvuf ta'limotidagi ezgu fazilatlarini mazmuni qo'lanilish ahamiyati tadqiqot natijalariga ko'ra ilmiy jihatdan asoslandi. Bunda talabalarning so'rovnoma va test savollariga bildirgan yozma va og'zaki javoblari darajalashtirildi. Ularning natijalari tadqiqot xulosalariga ko'ra ilmiy jihatdan asoslandi.

Talabalarning javoblarini darajalashtirish mezonini quyidagicha ifodalanadi:

1-guruh (yuqori daraja)ga kirgan talabalarda tasavvuf ta'limotini o'rganish bo'yicha qiziqish bo'lgan. Bu ta'limotning komil insonni tarbiyaashdagi tushunchasi to'liq namoyon bo'lganligi bilan tavsiflanadi. Bu guruh talabalarida tasavvuf ta'limotini o'rganishga qiziqish tarbiyalanganlikning yuqori darajaga xosidir.

2-guruh (o'rtacha daraja)ga kirgan talabalarda tasavvuf ta'limoti to'g'risida yetarli tushuncha hosil bo'lmagan, ammo bu ta'limotni o'rganish istagi bo'lganligi bilan belgilanadi.

3-guruh (quyi daraja)ga shunday talabalar kiritildiki, ularda tasavvuf ta'limoti mazmunini o'rganish beyarlli namoyon bo'lmagan, tasavvuf to'g'risida tushunchasi shakllanmagan, ammo, bilim egallash ehtiyoji mavjudligi bilan ifodalanadi.

Turli metodlarni qo'llab, olingan ma'lumotlar o'rganildi, umumlashtirildi.

$$\sigma^2 = \frac{1}{n-1} \sum_{i=1}^n (x - x_i)^2$$

Matematik-statistik o'zaro taqqosandi.

Nazorat sinflaridagi

o'quvchilar Xoju Ahmad Yassaviy haqida o'rganilgan bilimlarini, mustaqil tushuntira olishga, kundalik turmushda, foydalanishga qodirligi aniqlanadi. Olingan malumotlar, tajriba sinflarda o'tkazilgan tadbirlar o'zini to'la oqlaganini ko'rsatdi va tasavvuf ilmini o'rganish bo'yicha biz tavsiya etgan va qo'llagan tavsiyalar ijobiy samara berishiga ishonch hosil qilindi. Bu ilmiy faraz ishonchliligini va tadqiqotimiz maqsadi, nazifalari, tuzilishi, bosqichlari, davomiyligi, metodlari va boshqa tavsiflarini tasdiqladi. Tajriba natijalarining ijobiyligi matematik-statistik ma'lumotlari bilan tasdiqlandi.

Bu χ^2 (xi - kvadrat) formula bo'yicha quyidagicha ifodalanadi:

$$\chi^2 = \sum_{k=1}^m \frac{(V_k - P_k)^2}{P_k}$$

R_k - tajribagacha kuzatilgan ko'rsatkichlar,

V_k - tajribadan so'ng kuzatilgan ko'rsatkichlar.

m - guruhlardagi o'quvchilarning umumiy soni.

m	1	2	3	4	5
X_k	25	24	20	26	30

O'rtacha arifmetik qiymatining 12,5 ni hosil qiladi. Bundan $X \approx 3,2$ bo'lib, $T_{kblz} > T_{kir}$ dan ekanligi tadqiqot ijobiyligini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatlarini o'rganish yosh avlodni shakllantiruvchi, komillikka yetaklovchi vositadir. Yoshlarning ma'naviy, axloqiy shakllanib borishlarida mashoyixlar, ularning asarlaridagi insoniy g'oyalarni singdirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, Ahmad Yassaviyning ijodi ko'p qirrali bo'lib, odob-axloq namunalaridan darsda va tarbiyaviy ishlar jarayonida unumli foydalanish lozim bo'lgan ma'naviy-tarbiyaviy meros sifatida boy imkoniyatlarga egadir.

XULOSA VA TAVSIYALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov "Turkiston press" agentligi muxbirining savollariga bergan javoblarida shunday degan edi:

"-Aytmoqchimanki, biz o'z millatimizni mana shu muqddas dindand ayri holda aslo tasavvur qila olmaymiz Diniy qadriyatlar ilohiy tushunchalar hayotimizga shu qadar singib ketganki, ularsiz biz o'zligimizni yo'qotamiz, xoh yosh bo'lsin, xoh keksa bo'lsin har bir o'zbek nimagaki munosabat bildirmasin, albatta uni beixtiyor yaratuvchining nomi bilan bog'laydi".

Tasavvuf uzoq asrlar davomida xalqimiz ma'naviyatini boyitishda xizmat qilib kelgan insonning ruhiy-axloqiy poklanish ilohiy muhabbat bilan yuksalib borish bu ta'limotning asosiy g'oyalaridir. Tasavvuf nima degan savolga Shayx Nuriy javob berib aytadi: "Tasavvuf nafs lazzataridan voz kechishdir...". Ibn Arabiy tasavvufni tushuntirib, shunday yozgan ekan "Tasavvuf-yomon axloqdan parhyez qilish orqali ilohiy siatlar nuriga yetishdir". Shayx Xaririy "Tasavvuf –yaxshi xuqqa kirish va past xulqdan chiqishdir".

Mamakatimizning mustaqiigi mustahkamanib borayotgan hozirgi kunda tasavvuf ta'limotiga munosib ulush qo'shgan vatandoshlarimiz Ahmsad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshbandiy kabi tasavvuf ilmining bilimdonlarining hikmatlari, ibratli so'zlarining tarbiyaviy imkoniyataridan oqilona foydalanish asosiy vazifalardan biridir. Bizni bu allomalarninghayoti va ijodiy faoliyatidan ko'p yillar ajratib tursa-da, ularning risolalari, hikmatlaridagi tarbiyaviy fikrlar hozirgi davr yoshlarida vatanparvarlik, nafsni tiyish, do'stlik, birodarlik kabi fazilatlarni shakllantirishga, Vatan ravnaqi uchun kuch-g'ayratlarini ayamasdan xizmat qilishga saarbad etishda muhim pedagogik manba sifatida xizmat qiladi. Biz olib borilgan tadqiqat ishlarimizning natijalaridan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga keldik:

- Talaba ma'naviyatini shakllantirishda tasavvuf imining vakillari Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband kabi alomalarning merosi to'g'risida ma'lumot berish muhim ahamiyat kasb etadi;

-Tasavvuf ilmiga munosib ulush qo'shgan vatandoshlarimizning tarbiyaviy qarashlari ko'p qirrali bo'lib, ulardan barkamol shaxs fazilatlarini shakllantirishda tarbiyaviy tadbirlarga asos qilib olish davr talabidir;

-Tadqiqot jarayonida tasavvufshunos alomalarning hikmatlari, ibratli so'zlari orqali taabalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari takomillashtirildi;

-Kelajakda tasavvuf ta'limoti mamlakatimizning madaniy taraqqiyotining muhim omili ekanligini e'tiborga olib, davlat tomonidan bu sohani o'rganishga moddiy mablag'lar ko'paytirishni, bu borada ishbilarmon-tadbirkorlarni jalb etish lozim;

-Hozirgi mafkuraviy kurash kuchaygan bir paytda, mavjud illatlarga qarshi kurash vositalaridan biri bu tasavvufiy g'oyalardan, ularning ezgulik, adolat, o'zlikni anglash va vatanparvarik to'g'risidagi dunyoviy fikrlarni o'rganish mafkuraviy immunitet vazifasini o'taydi, degan fikrdamiz.

-Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshbandiy kabi aziz avliyolar qadamjolarining xaritasi tuzilib, sayohatlar tashkil etishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

-Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida "Tasavvuf axloqi", bakalavr va magistratura yo'nalishlarida "Talaba ma'naviyatini shakllantirishda tasavvuf ta'limotining imkoniyatlaridan foydalanish" nomli maxsus kurslarni tahlil qilish lozim.

Ushbu vazifalar amalga oshirilganda tasavvuf ta'limoti asosida talaba ma'naviyatini shakllantirishning zamonaviy usullari amalga oshgan bo'ladi va barkamol avlodni shakllantirishdek davlat buyurtmasi bajarilgan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustvor maqsadimizdir”. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. // Huquq va burch jurnali. 2010 – yil. № 1 son. 3-10 – betlar.
2. Karimov I.A. “O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir” Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. // Huquq va burch jurnali. 2009 – yil. № 12 son. 2-9 – betlar.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: “O'zbekiston”, 2009 – yil.
4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T., O'zbekiston. 1994.
5. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T., O'zbekiston. 1995.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. T., O'zbekiston. 1997.
7. Karimov I.A. Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart! Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis o'n uchinchi syessiyasida so'zlangan nutq. Xalq so'zi, 1998 - yil 24 - dyekabr. 252-son.
8. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. Turkiston gazetasi muxbiri savollari javoblar. Xurriyat gazetasi. 1999 - yil 3-9 - fyevral.
9. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. Turkiston-priess axborot agentligi muxbirining savollariga byerilgan javoblar. Xalq so'zi 1999 - yil 6 - mart. 64-son.
10. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, siyosat, mafkura. T., O'zbekiston. 1993.
11. Karimov I.A. Milliy mafkura – mamlakat kelajagi poydevori. Xalq so'zi, 2000 - yil 7 - apriyel.
12. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: “ Ma'naviyat”, 2008 - yil.
13. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T., 2009 – yil.

14. O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonuni. 1997., 29 - avgust.
15. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: O'zbekiston, 2000, - 80 b.
16. Abdullayeva V.A. O'zbek adabiyoti tarixi. –T.: O'qituvchi, 1990, 112 b.
17. Abdurahmon Sa'di. Yassaviy kim edi?/- I.: Inqilob 1922, №2
18. Abduqodirov Abduxoliq. Faqr - kamolot yo'li // Fan va turmush. 1998. -№1.24-b.
19. Abulg'oziy Bahodirxon. Shajaria turk. -T.: Cho'lpon, 1992. 192 -b.
20. Al-Buxoriy. Al-Jome as-Sahih (Ishonarli to'plam) -T.: Qomuslar bosh tahririyati. T.1-4. 1991. - 569 b.; 1992. -527 b.; 1994. -560 b; 1996. -622 b.
21. Aliqulov X.A. Sharq mutafakkirlari axloq haqida.-T.: Fan, 1974. -48 b.
22. Amir Temur o'g'itlari. -T.: «Navro'z», 1992. - 64 b.
23. Asqarov A. O'zbekiston xalqlari tarixi. 1-qism. -T.: 1999. -162 b.
24. Axloq-odobga oid hadis namunalari. -T.: Fan, 1990. - 72 b.
25. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. -T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992. -208 b.
26. Axmad Yassaviy. Hikmatlar. -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991 -256 b.
27. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. -T.: O'qituvchi, 1994. -432 b.
28. Ahmedov B. O'zbekistan xalqlari tarixi manbalari. -T.: O'qituvchi, 1991.-216b.
29. Baraka, Xurram. Tasavvuf va Xoja Ahrori Valiy. -Samarqand.: «So'g'diyona», 1997. - 142 b.
30. Jabbarov N. Xoja Ahmad Yassaviy – tasavvuf osmonining porloq yulduzi. – T.: 1994. -57 b.
31. Jaholatga qarshi ma'rifat – tinchlik va barqarorlik asosi. Mas'ul muharrir Z.Husniddinov. – T.: Toshkent islom universiteti, 2003, -214 b.
32. Jo'shon M.A. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. –T.: Cho'lpon, 2000, -80 b.
33. Ibrohim Haqqul. Tasavvuf va she'riyat. –T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot, 1996. – 183 b.

34. Ismoilov S.T. Naqshbandiya tariqatining tasavvuf taraqqiyotidagi o'rnini. // Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. Toshkent, 2008. 21 b.
35. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. –T.: O'qituvchi, 1994. -112b.
36. Munavvarov A.K. Pedagogika. –T.: O'qituvchi, 1996, -200 b.
37. M.Ochilov, N.Ochilova. Oliy maktab pedagogikasi. Darslik. –T.: “Aloqachi”, 2008, -304 b.
38. Komilov N. Tasavvuf. –T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at hamda “O'zbekiston” nashriyotlari. 1-2 kitoblar. –T.: 1996-1999. -272 b; -208 b.
39. Usmonov O. Bahouddin Naqshband va uning ta'limoti haqida. –T.: Universitet, 1993, -34 b.
40. Fitrat A. Ahmad Yassaviy // “Maorif va o'qituvchi”. – T.: 1927, №6,7-8.
41. Hajiyeva M.S. Xoja Ahmad Yassaviyning ma'naviy-tarbiyaviy qarashlari. 13.00.1-pedagogika va tarixi. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiya. Toshkent, 2004. -125 b.
42. Hasanboyeva O. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi. -T.: Respublika ta'lim markazi, 1996. - 86 b.
43. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov X. Pedagogika tarixi. -T.: O'qituvchi, 1997.-248 b.
44. Hasanboyev J., Hasanboyeva O., Hamidov X. Ma'naviy-axloqiy tarbiya. -T.: G'.G'ulom nomidagi ASN, 1999. - 120 b.
45. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. -T.: O'qituvchi, 1996.-488 b.
46. Hoshimov K. Talabalarni milliy qadriyatlarimiz asosida axloq-odob ruhida tarbiyalaylik. Ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. -T.: 1993. -123b.
47. www.ziynet.uz

Pedagogika fakulteti maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'limida tahsil olayotgan 3-kurs talabalariga Ahmad Yassaviy to'g'risidagi bilimlarini o'rganish yuzasidan test savollari

1. Tasavvuf ta'limotining asosiy g'oyasini bilasizmi?
 - A) komil insonni tarbiyalash g'oyasi ilgari suriladi
 - B) muqaddas dinimizning tarixi o'rgatiladi
 - S) insonparvarlik, vatanparvarlik g'oyalari ilgari suriladi
 - D) jismoniy va aqliy nuqson bor bolalarni tarbiyalash ilgari suriladi
2. Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Najmiddin Kubrolar to'g'risida qaysi manbalarda ko'proq o'rganamiz?
 - A) umumiy pedagogika va pedagogika tarixidan
 - B) sosiologiya, psixologiya fanlaridan
 - S) tarix va geografiya fanlaridan
 - D) pedagogika, psixologiya, metodikadan
3. Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Najmiddin Kubrolar qaysi shaharlarda tug'ilgan?
 - A) Samarqand, Sayram, Kat
 - B) Yassi, Buxoro, Xorazm
 - S) Turkiston, Qasri Orifon, Ichan qal'a
 - D) Jambul, Koson, Urganch
4. Ahmad Yassaviy hikmatlaridan bilasizmi?

Ha	Yo'q	O'rganayapman
----	------	---------------
5. "Diling Allohda, qo'ling ishda bo'lsin", - degan so'zlar qaysi allomaga tegishli?
 - A) Ahmad Yassaviyga
 - B) Najmiddin Kubroga
 - S) Bahouddin Naqshbandiyga
 - D) Mir Said Barakaga
6. Najmiddin Kubro ta'limotining asosiy g'oyasi nimada?
 - A) tarkidunyochilikni targ'ib qilgan
 - B) Vatanga bo'lgan muhabbat, har qanday og'ir sharoitda ham omma bilan birga bo'lish

S) Tariqat yo'llarini ifodalagan

D) barcha javoblar to'g'ri

7. Mafkura deganda nimani tushunasiz?

A) ma'lum maqsadni ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiluvchi g'oyalar yig'indisi

B) mustaqillikni mustahkamlaydigan g'oya

S) fikrlar to'plami

D) to'g'ri javob berilmagan

8. Tasavvuf nimaga da'vat etadigan ta'limot?

A) halollikka, poklikka, boshqalarning kuchidan foydalanmaslikka

B) qadr-qimmatni yerga urmaslikka

S) har kimki o'zining halol mehnati bilan yashashga

D) barcha javoblar to'g'ri

9. Alisher Navoiy Ahmad Yassaviy haqidagi qaysi asarida fikr yuritadi?

A) "Xamsa"da

B) "Farhod va Shirin"da

S) "Mahbub ul-qulub"da

D) "Nasoyim-ul muhabbat"

10. Amir Temur Ahmad Yassaviy qabri ustiga qaysi yillarda bino qurdirgan?

A) 1395-1397 yillarda

B) 1390-1392 yillarda

S) 1392-1394 yillarda

D) 1397-1399 yillarda

Pedagogika fakulteti maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'limida tahsil olayotgan
2-kurs talabalariga Najmiddin Kubro to'g'risidagi tushunchalarini o'rganish
yuzasidan berilgan test savollari

1. Najmiddin Kubro qayerda tug'ilib o'sgan?
 - A) Xorazmda
 - B) O'trorda
 - S) Urganchda
 - D) To'rtko'lda
2. Najmiddin Kubro ta'limotining asosiy g'oyasi nimada?
 - A) tarkidunyochilikni targ'ib qilgan
 - B) Vatanga bo'lgan muhabbat har qanday og'ir sharoitda ham omma bilan birga bo'lish
 - S) poklikni, mehnatsevarlikni targ'ib qilgan
 - D) barcha javoblar to'g'ri
3. Ahmad Yassaviy tariqatidan Kubraviya tariqatining farqi nimada?
 - A) Kubraviya tariqati tarkidunyochilikni rad qiladi
 - B) Kamolot yo'lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo noz-ne'matlaridan bahramand bo'lish
 - S) Vatanning mustaqilligi uchun kura shva uni mudofaa qilishga da'vat etgan
 - D) barcha javoblar to'g'ri
4. Najmiddin so'zining ma'nosini bilasizmi?
 - A) "dinning yulduzi"
 - B) "dinning quroli"
 - S) "dinning quyoshi"
 - D) to'g'ri javob yo'q
5. Kubro so'zining ma'nosi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.
 - A) "ulug' olam"
 - B) "baxtli inson"
 - S) "qat'iyatli kishi"
 - D) "buyuk mutafakkir"
6. Najmiddin Kubroning 850 yillik yubileyi respublikamizda qachon nishonlandi?
 - A) 1995 yil

- B) 1996 yil
- S) 1992 yil
- D) 2008 yil

7. Xalqaro Islom Konferensiyasi tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tuzilmasi – AYSESKO tomonidan respublikamizdagi qaysi shahar Islom madaniyatining poytaxti deb e'lon qilindi?

- A) Samarqand
- B) Buxoro
- S) Xiva
- D) Toshkent

8. "... muqaddas islom dinimizni pok saqlash, uni turli xil g'arazli xuruj va hamlalardan, tuhmat va bo'htonlardan himoya, uning asl mohiyatini unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizga to'g'ri tushuntirish dolzarb bo'lib qolmoqda", - degan so'zlar kimga tegishli?

- A) Imom Buxoriyga
- B) Islom Karimovga
- S) Al-Farg'oniyga
- D) Najmiddin Kubroga

9. Najmiddin Kubro tarixda qanday nom qoldirgan?

- A) buyuk alloma
- B) o'z vatani ozodligi uchun kurashgan milliy qahramon
- S) mard va jaqur inson sifatida
- D) A va B javoblar to'g'ri

10. So'nggi yillarda O'zbekistonda tasavvuf ta'limotini o'rganishga qiziqish kuchayib borishining sababi nimada?

- A) xalqning milliy ongi o'sganligi
- B) milliy g'urur mustahkamlanib borayotganligi
- S) milliy merosni o'rganishga bo'lgan munosabatda
- D) barcha javoblar to'g'ri

Pedagogika fakulteti maktabgacha tarbiya yo'nalishi 4-kurs talabalariga
Bahouddin Naqshbandiy ta'limotini o'rganish yuzasidan test savollari

1. Bahouddin Naqshbandiy tug'ilgan "Qasri Hinduvon" qishlog'i hozir nima deb ataladi?
 - A) Qasri Buxoro
 - B) Qasri Orifon
 - S) Qasri G'ijduvon
 - D) to'g'ri javob yo'q
2. "Hayotnoma" va "Dalil al-oshiqin" asarlarining muallifi kim?
 - A) Bahouddin Naqshbandiy
 - B) Najmiddin Kubro
 - S) Ahmad Yassaviy
 - D) Abduxoliq G'ijduvoni
3. Naqshbandiya tariqati qayerlarda keng tarqalgan?
 - A) Movarounnahrda
 - B) Xurosonda
 - S) Xorazmda
 - D) barcha javoblar to'g'ri
4. Navshbandiya tariqatining asosida nima yotadi?
 - A) insonlarni halol va pok bo'lishga undash
 - B) o'z mehnati bilan kun kechirishga undash
 - S) muhtojlarga xayr-ehson berishga, sofdil va kamtar bo'lishga undash
 - D) barcha javoblar to'g'ri
5. "Ko'ngil Allohda bo'lsin-u, qo'l ish bilan band bo'lsin" degan hikmatning mohiyatini bilasizmi?
 - A) tarkidunyochilikni rad etadi
 - B) mehnatsevarlik, odillik
 - S) bilimdonlikni targ'ib qiladi
 - D) barcha javoblar to'g'ri
6. "... buyuk alloma va aziz-avliyolarimiz orasida Abduxoliq G'ijduvoni va Bahouddin Naqshbandiyni muborak siymosi ajralib turadi", - degan so'zlarni davlatimiz rahbari qaysi asarida aytgan?
 - A) "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q"

B) “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”

S) “O’zbekiston – kelajagi buyuk davlat”

D) “Vatan – sajdagoh kabi muqaddasdir”

7. Mustaqillik yillarida Bahouddin Naqshbandning necha yillik yubileyi nishonlandi?

A) 675 yilligi

B) 600 yilligi

S) 800 yilligi

D) barcha javob to’g’ri

8. Bahouddin Naqshbandiy yoshligidan qaysi hunarni egallagan?

A) matoga gul bosishni

B) duradgorlik kasbini

S) g’isht quyish va paxsa quyishni

D) birorta hunar egasi bo’lmagan